

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
DAVLAT TEST MARKAZI**

AXBOROTNOMA BULLETIN

1-2

2022

Toshkent

“AXBOROTNOMA”

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi ilmiy - uslubiy jurnali.
Bir yilda 4 marta chiqadi.
O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2007 yil 19 aprelda qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Guvohnoma № 0247

Ta‘sischi:
Davlat test markazi

Tahririyat hay‘ati:

Baratov Akmal
(bosh muharrir)
Gulyamov Sur‘at
Muhammadiyev Murodulla
Karimov Madjit
Sodiqov Qosimjon
Ibragimov Abdug‘ofur
Boboyev Orziqul
(bosh muharrir o‘rinbosari)
Qayumov Abduxalil
Mirvaliyev Zoid
(mas‘ul kotib)

Bosishga ruxsat etildi: 24.06.2022
Shartli bosma tabog‘i: 5,4
Nashriyot hisob tabog‘i: 5,3
Adadi 100. Buyurtma № 1 - A - 22

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi bosmaxonasida chop etildi.

Nashrga tayyorlovchilar:
A. Baratov, Z. Mirvaliyev

Muharrir:
Z.Shakarov

Kompyuterda sahifalovchi:
O. Boboyev

Tahririyat manzili:

100084, Toshkent shahri,
Bog‘ishamol ko‘chasi, 12-uy.

© “Axborotnoma”

MUNDARIJA

Kirish	3
<i>M.Dj. Ermamatov, A.A. Baratov, Z.Z. Mirvaliyev, A.B. Normurodov, A.A. Sulaymonov.</i>	
Ta‘lim tizimida bilimlarni baholashda blum taksonomiyasining o‘rni	4
<i>A.A. Abbosov.</i>	
Yozish ko‘nikmasini tekshirishda baholovchilar o‘rtasidagi ishonchlilik	12
<i>M.Dj. Ermamatov, A.R. Sattiyev, Sh.Sh. Nishonboyev, Sh.S. Namozov, A.A. Baratov, Z.O. Olimbekov, A.A. Sulaymonov, Z.Z. Mirvaliyev.</i>	
Aprobatsiya test sinovlari orqali maqbul statistik parametrlarni aniqlash	18
<i>M.Dj. Ermamatov, A.R. Sattiyev, D.M. Alimov, A.A. Baratov, A.A. Sulaymonov.</i>	
Test toshiriqlari sonining test natijalariga ta‘siri	30
<i>J.T. Odilov.</i>	
Oliy ta‘lim muassasalari bakalariat ta‘lim yo‘nalishi qabulida qo‘llanadigan imtiyozlar	40
<i>Ж.Т. Одилов.</i>	
Льготы при поступлении в высшие учебные заведения	66

CONTENTS

<i>M. Dj. Ermamatov, A.A. Baratov, Z.Z. Mirvaliev, A.B. Normurodov, A.A. Sulaymonov.</i>	
Role of bloom’s taxonomy with in educational assessment ...	11
<i>A.A. Abbosov.</i>	
Inter-rater reliability in assessing writing	17
<i>M.J. Ermamatov, A.R. Sattiev, Sh.Sh. Nishonboev, Sh.S. Namozov, A.A. Baratov, Z.O. Olimbekov, A.A. Sulaymonov, Z.Z. Mirvaliev.</i>	
Determining appropriate statistical parameters through piloting tests	29
<i>M.J. Ermamatov, A.R. Sattiev, D.M. Alimov, A.A. Baratov, A.A. Sulaymonov.</i>	
Impact of number of items on test results	39

KIRISH

“Axborotnoma” ilmiy - uslubiy jurnalining ushbu sonida Davlat test markazi xodimlari tomonidan olib borilgan ilmiy - uslubiy ishlar natijalari haqida to‘rtta maqola va oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga kirish uchun beriladigan imtiyozlar va ularning qo‘llanishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Birinchi maqolada Blum taksonomiyasi va uning ta’lim tizimidagi ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tilgan. Ikkinchi maqolada Davlat test markazi tomonidan o‘tkaziladigan chet tilini bilish darajasini baholash test sinovlari “Yozma ish” bo‘limi natijalari tahlili keltirilgan hamda baholovchi ekspertlar ishini monitoring qilish va standartlashtirish masalasi muhokama qilingan. Uchinchi maqolada qayta olingan aprobatsiya testlari bilan statistik parametrlarni fiksirlash muhokama qilingan. To‘rtinchi maqolada test topshiriqlari sonining test natijalariga ta’siri ixtisoslashtirilgan maktablarning 5-sinfida qabulida matematika va ona tili fanlaridan olingan test natijalari tahlili bilan ko‘rsatilgan.

Shuningdek, 2022/2023 o‘quv yilida oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga kirish uchun beriladigan imtiyozlar va ularning qo‘llanishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, ma’lumotnoma oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga kirish istagini bildirgan abituriyentlar va ularning ota-onalariga mo‘ljallangan.

Jurnalning ushbu soni ta’lim sohasida faoliyat olib borayotgan barcha mutaxassislar, pedagoglar, shuningdek, abituriyentlar, ota-onalar hamda keng jamoatchilik uchun mo‘ljallangan.

TA'LIM TIZIMIDA BILIMLARNI BAHOLASHDA BLUM TAKSONOMIYASINING O'RNI

M.Dj. Ermamatov¹, A.A. Baratov², Z.Z. Mirvaliyev¹,
A.B. Normurodov², A.A. Sulaymonov¹

¹O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi,
100084, Toshkent sh., Bog'ishamol k., 12

²O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi
huzuridagi Ilmiy-o'quv amaliy markazi, 100084, Toshkent sh., Bog'ishamol k., 12

Qisqacha mazmuni. Maqolada Blum taksonomiyasi va uning ta'lim tizimidagi ahamiyati haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Blum taksonomiyasi, bilim, tushunish, tadbiiq, tahlil, sintez, baho.

Matbuotda pedagogik o'lchovlar sohasida mulohaza yuritilganda validlik, ishonchlilik va adolatlilik kabi tushunchalar faqat oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarigagina tegishli degan fikr paydo bo'ladi. Lekin bu mezonlar pedagogik o'lchovlar orqali baholash zarurati tug'ilgan holatlarda amal qilinishi lozim. Bu mezonlarga amal qiluvchi tizimlar quyidagilar:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- kirish imtihonlari;
- oliy ta'lim tizimi;
- tayanch doktorantura.

Oxirgi vaqtlarda Blum taksonomiyasi tatbiqi haqida mulohazalar ham shunga o'xshash, ya'ni Blum taksonomiyasiga oid mulohazalar ham faqat qabul testlari jarayonida yuzaga chiqmoqda. Aslida ularning qo'llanishi ham maktabgacha ta'limdan boshlanishi lozim.

Ushbu maqolaning maqsadi hozirgi kunda Blum taksonomiyasining baholash jarayonida muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olib, shu sohadagi

adabiyotlarni tahlil qilgan holda o'qituvchi-pedagoglar va test tuzuvchilarga ko'proq ma'lumot va takliflar berishdir.

Avvalo, ko'pchilikda shakllangan baholash, faqat kirish imtihonlaridagina ob'yektiv bo'lishi kerak degan fikr noto'g'ri ekanligini ta'kidlamoqchimiz. Umumiy o'rta va oliy ta'lim muassasalaridagi baholash ham kirish imtihonlaridagidek jiddiy va ob'yektiv (valid, ishonchli va adolatli) bo'lishi kerak. Faqat shundagina, umumiy o'rta va oliy ta'lim muassasalarida bilimlarni baholash kirish imtihonlaridagi kabi ahamiyatga ega bo'ladi hamda kirish imtihonlari, umumiy o'rta ta'lim muassasalari, oliy ta'lim muassasalari va tayanch doktoranturadagi baholash ballarining korrelatsiyasi mazmunga ega bo'ladi. Baholash jarayonini maktabgacha ta'limdan boshlab tayanch doktoranturagacha bo'lgan ta'lim jarayonida to'g'ri baholanishi, shaxslarning o'z qobiliyati bo'yicha kasb-hunar tanlashiga olib keladi. Bu o'z navbatida kirish

imtihonlarida juda katta tanlov bo'lishining oldini oladi va bilimlarni sifatli baholash imkoniyatini yaratadi. Bu bilan baholash faqat oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun emas, balki shaxslarni o'z qobiliyati bo'yicha to'g'ri yo'naltirish uchun muhim ekanligini ta'kidlamoqchimiz.

Blum taksonomiyasi 1956-yilda Chikago universiteti psixologi Benjamin Samuel Blum va u bilan ishlagan bir guruh olimlar tomonidan taklif qilingan [1]. Ular ta'limni quyidagi uchta sohaga (domains of learning, shu o'rinda inglizcha domain so'zini ba'zi o'zbek tilidagi adabiyotlarda "domen" degan termin sifatida kiritib noto'g'ri talqin qilinayotganligini ta'kidlab o'tamiz) bo'lishni tavsiya qilishdi:

- Kognitiv soha (cognitive domain) – aqliy qobiliyatga tegishli. Bilimlarni baholash bu kognitiv sohani baholashdir.
- Affektiv soha (affective domain) – emotsional sohaga tegishli. Ijodiy qobiliyatlarni baholash bu affektiv sohani baholashdir.
- Psixomotor soha (psychomotor domain) – bu sohaga qo'l mehnati va fizik qobiliyatlar kiradi. Masalan, voleybol koptogini to'r orqali belgilangan joyga tushirish mashqi bilan shaxsning psixomotor sohaga tegishli qobiliyati aniqlanadi.

Chuqur o'ylab ko'rilsa yuqoridagi sohalar shunchaki nazariy tushunchalar emas, balki hayotiy tajribada juda ko'p uchraydigan sohalardir. Masalan, kimningdir fizika fanidan nazariy bilimlari (kognitiv qobiliyat) juda kuchli

bo'lishi, hattoki bu sohada kashfiyot qilgan bo'lishi, lekin elektr vilkalarini tuzata olmasligi (psixomotor qobiliyat), kimdir yaxshi she'r yozishi yoki qo'shiq ayta olishi (affektiv qobiliyat) mumkin. Albatta to'g'ri baholash orqali o'quvchilarni qobiliyati bo'yicha tegishli sohaga yo'naltirish bilan juda katta muammoning oldini olish mumkin.

Blum ham o'z taksonomiyasini yaratganda uning avvalo ta'lim jarayoniga tatbiqini nazarda tutgan, shuning uchun ham uni ta'lim maqsadlari taksonomiyasi [4] (ing. Taxonomy of Educational Objectives) deb ham atashadi. Bu taksonomiya o'qituvchilar tomonidan ta'lim maqsadlari, ularning to'g'ri yo'naltirilishiga va maqsadga qanchalik darajada erishilganligini baholashga xizmat qiladi.

Maqolada asosan kognitiv soha haqida mulohaza yuritiladi. Blum taksonomiyasining kognitiv sohasi [1] quyidagi 6 ta darajani o'z ichiga oladi (affektiv [5] va psixomotor sohalarning ham o'z darajalari bor [6]):

1. Bilim (Knowledge) – faktlarga asoslangan materialni u qanday shaklda o'tilgan bo'lsa shunga yaqin holda eslash.

- bilish
- eslash

Masalan, to'g'ri burchak necha gradusligini eslash [2] (*so'rash shakli bilan o'rganilgan shakl o'rtasida kuchli bog'liqlik bor*), mamlakatlarning poytaxtini eslash [3].

2. Tushunish (Comprehension) – original konsepsiyadan farq qiladigan tarzda boshqa ko'rinishga o'tkazish, talqin qilish yoki ekstrapoliyatsiya qilish

- talqin qila olish;

- misollar keltira olish;
- sinflarga ajrata olish (klassifikatsiyalay olish);
- ma'lumot yig'a olish;
- tushuntirish.

O'quvchilar berilgan ma'lumotning ma'nosini tushunadi va o'z malakasini oshkor so'rov bo'lganda ishlata oladi [2].

Masalan:

- chizmadan $t=10c$ dagi haroratni topish [2];
- berilgan gapdan darsda o'tilmagan otlarni topish;
- darsda ishlatilmagan tub sonlarni aytish.

3. Tatbiq (Application) – yangi muammolarni tanish bo'lgan prinsiplar va umumlashtirishlar orqali yecha olish:

- masala shartida o'z malakalarini **oshkor so'rov bo'lmaganda** ham ularni ishlata oladi [2].
- ko'nikmalar yangi sharoitda yangi yo'l bilan ishlatiladi.

Masalan, Om qonunini masala shartida berilmagan bo'lsa-da, o'tkazgichni elektr qarshiligini hisoblashda ishlata olish.

4. Tahlil (Analysis)

- muammoni tarkibiy qismlarga ajrata oladi;
- bo'lingan qismlarning xususiyatlarini aniqlay oladi;
- bo'lingan qismlar orasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlay oladi.

Masalan, 201×199 ning qiymatini to'g'ridan to'g'ri ko'paytirishni bajar-masdan turib hisoblang [2].

- yangi o'simlik turining genini uning barglari va gullarini

xususiyatlariga qarab aniqlay olish [3].

5. Sintez (Synthesis)

- ma'lumotlarni yangi usul bilan bir joyga yig'a oladi;
- isbotlay oladi;
- ijodkor bo'la oladi;
- muammoga "hujum qilish" strategiyasi mavjud.

Masalan, $\sqrt{2}$ irratsional son ekanligini isbotlang [2].

Ma'lumotlar to'plami uchun kompyuter dasturlarni yozish [3].

6. Baho (Evaluation) – ichki (o'zi yaratgan) yoki tashqi kriteriyani kritik mulohazalarda aniqlik, mantiqqa muvofiqlik yoki falsafiy nuqtayi nazardan qo'llay olish.

- ma'lumot bilan ta'minlangan, qo'llab quvvatlangan mulohazalar bayon qilinadi;
- baho berish ishlatiladi.

Masalan, ijtimoiy yoki personal psixologiyadagi eksperimental tadqiqotlarga tanqidiy tahlil yozish [3].

2000-yilda bu darajalarni Pol tomonidan [7] quyidagicha o'zgartirish taklif qilindi:

- eslash (Remembering): bu darajada o'qituvchining darsdagi roli yo'naltirish, aytish, ko'rsatish, tekshirish, savollar berish va baholashdir. O'qituvchining bu darajada darsdagi roli javob berish, miyaga singdirish, bilish, yoddan aytish, ta'rif berish, tasvirlash va qayta aytish;
- tushunish (Understanding);
- qo'llash (Applying);
- tahlil qilish (Analyzing);

- baholash (Evaluating);
- yaratish (Creating).

Blum va Pol taksonomiyalari bir-biriga juda o'xshash: birinchi to'rtta taksonomiya ketma ketligi mazmunan biri-biriga yaqin (bilim - eslash, tushunish – tushunish, tatbiq-qo'llash, tahlil-tahlil qilish, lekin oxirgi 2 ta taksonomiya ketma-ketligi o'zgargan (baho Blum taksonomiyasida 6-o'rinda, baholash yangi taksonomiyada 5-o'rinda turibdi, sintez Blum taksonomiyasida 5-o'rinda, yaratish esa yangi taksonomiyada 6- o'rinda turibdi). Kognitiv darajalarining ingliz tilidagi farqlariga ham e'tibor berish foydali. Blum taksonomiyasida ular asosan nomni ifodalaydigan ot so'z turkumi, yangi taksonomiyada esa jarayonni ifodalaydigan gerundiy (o'zbek tilida harakat nomi) bilan berilgan. Shuningdek, Blum taksonomiyasidagi tushunish (understanding) bilan yangi taksonomiyadagi tushunish (comprehension) orasida ham nozik farq bor [8].

O'quvchilarimizda yuqoridagi taksonomiya haqida aniqroq tasavvur hosil bo'lishi uchun quyida uning darajalarining darsda ishlatilishiga misollar keltiramiz [9].

Eslash darajasiga misollar:

- Dars oxirida o'quvchi tezlanishning ta'rifini bera oladi.
- Dars oxirida o'quvchi dizayner sifatida fikr yuritish bosqichlarini aytib bera oladi.
- Dars oxirida o'quvchi inson miyasining turli xil qismlarini aytib bera oladi.
- Dars oxirida o'quvchi javascriptdagi sikllarni aytib bera oladi.

- Dars oxirida o'quvchi asab tizimining qismlarini aytib bera oladi.

Tushunish darajasiga misollar:

- Dars oxirida o'quvchi miyadagi sensor retseptorlari stimullarni qanday topishni tushuntira oladi.
- Dars oxirida o'quvchi turli xil sonlar ketma-ketligini aniqlay oladi.
- Dars oxirida o'quvchi yurak qonni qanday qilib tana bo'ylab harakatlantirishini tushuntira oladi.
- Dars oxirida o'quvchi massa bilan og'irlik o'rtasidagi farqni tushuntira oladi.
- Dars oxirida o'quvchi moddalarning eruvchanligiga ta'sir qiladigan faktorlarni muhokama qila oladi.

Qo'llash darajasiga misollar:

- Dars oxirida o'quvchi matematik formula yordamida 1 yil davomidagi jami kunlik sarf - xarajatini hisoblay oladi.
- Hisobchi dastur yordamida oilaning 1 yillik oila budjetini hisoblay oladi.
- Dars oxirida o'quvchi ixtiyoriy kompaniyaning daromadlarini uning oxirgi ma'lumotlaridan foydalanib hisoblay oladi.
- Dars oxirida o'quvchi turli milliy madaniyatlar ichida qanday o'zini tutishini ko'rsata oladi.
- Dars oxirida o'quvchi o'zaro mu-loqot vaqtida emotsional xatti-harakatlarini namoyish eta oladi.

Tahlil darajasiga misollar:

- Dars oxirida o'quvchi tavsif va xulosa statistikasining bir-biridan farqlarini ajratib bera oladi.

- Dars oxirida o‘quvchi prokariotik va eukariotik to‘qimalarni bir-biridan ajratib bera oladi.
- Dars oxirida o‘quvchi qanday qilib DNKlar RNKga o‘tishini tushuntira oladi.
- Dars oxirida o‘quvchi marketing tadqiqotlari natijasini tahlil qila oladi.
- Dars oxirida o‘quvchi kuz faslida barglarning rangi qay tarzda o‘zgarishini tushuntira oladi.

Baholash darajasiga misollar:

- Dars oxirida o‘quvchi o‘zi taklif etgan g‘oyasini himoya qila oladi.
- Dars oxirida o‘quvchi ko‘mir qazib olishning tabiatga ta’sirini baholab bera oladi.
- Dars oxirida ijtimoiy tarmoqning biznes reklamasidagi rolini baholab bera oladi.


Yaratish darajasiga misollar:

- Dars oxirida o‘quvchi Google play storega ilova yoza oladi.
- Dars oxirida o‘quvchilar MS Excel da moliya hisobotini tayyorlay oladi.
- Dars oxirida o‘quvchi biror bir organizmning ilmiy nomini bera oladi.
- Dars oxirida o‘quvchi klimatik o‘zgarishlar muammosini yechish uchun innovativ g‘oyalar yaratadi.
- Dars oxirida o‘quvchilar o‘zlarining batareya zaryadlagichlarini yaratadilar.

Blum taksonomiyasini ta’limning quyi bosqichidan boshlab (masalan, maktabgacha ta’limdan tayanch doktoranturagacha) qo‘llash maqsadga mu-

vofiq ekanligini yuqoridagi misollardan ham ko‘rish mumkin. Kognitiv darajalarga qanchalik erishilganligini baholash, ta’lim rivojlanishi uchun juda muhim ahamiyatga egadir.

Jamiyatda shaxsning maqsadi faqat oliy ta’lim muassasasiga kirish bo‘lmasligi, balki uni o‘z qobiliyati bo‘yicha to‘g‘ri yo‘naltirish asosiy maqsad bo‘lishi lozim. Kimningdir kognitiv qobiliyati yuqori bo‘lsa – ular ilmiy tadqiqotlarga yo‘naltirilishi, kimningdir affektiv qobiliyati yuqori darajada bo‘lsa – ular san’at, adabiyot, musiqa kabi sohalarga yo‘naltirilishi, kimningdir psixomotor qobiliyati yuqori bo‘lsa – ular ishlab chiqarish, sanoat va h.k. larga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiqdir. Buni amalga oshirish uchun baholash to‘g‘ri va sifatli bo‘lishi juda muhim ahamiyatga egadir. Bu yerda faqat oliy ta’lim muassasasiga kirish testlari orqali baholash emas, balki umuman maktabgacha ta’lim, maktab va oliy o‘quv yurtlaridagi baholash nazarda tutilgan. Har qanday baholash valid bo‘lishi kerak, ya’ni sinaluvchilarning bilimi qanday bo‘lsa, xuddi shunga mos ob’yektiv bahosini olishi kerak. AQSh ta’lim tizimida bu qanday amalga oshirilganligi bilan [10] da tanishish mumkin. Har qanday qobiliyatli (kognitiv, affektiv va psixomotor) shaxslar qobiliyatiga yarasha jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga erishish lozim.



Biz yuqoridagilardan kelib chiqib boshlang'ich ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan tizimni quyidagi sxema bo'yicha tashkil qilishni taklif qilamiz:

- 1) pedagog tomonidan o'quvchilar bilimi pedagogik o'lchov vositasi orqali baholanadi;
- 2) ta'lim muassasasi rahbariyati tomonidan pedagogdan mustaqil holda baholash o'tkaziladi;
- 3) ta'lim muassasasidan mustaqil holda baholash o'tkaziladi (standartlashtirilgan testlar yordamida).
- 4) o'tkazilgan baholashlar orasidagi mutanosiblik ko'rib chiqiladi va o'zaro mos bo'lsa, ta'lim muassasasi sifatga ko'ra rag'batlantiriladi, aksincha bo'lsa, chora ko'riladi.

Buning uchun, avvalo, pedagoglar pedagogik o'lchovlar nazariyasi haqida, o'lchov natijalarining adolatliligi, ishonchliligi va validligi, pedagogik o'lchovlarni amalga oshirishda talab etiladigan ketma-ketliklar va o'lchov-

larning ishonchiligi va validligini ta'minlashda nimalarga e'tibor qaratish kerakligi, pedagogik o'lchovlarning ob'yektivligi va ularni ta'minlash bo'yicha ma'lumotlar, o'lchovlarning darajasi va shkalalari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim. Bundan tashqari bilimlarni baholash test topshiriqlari natijalarini to'g'ri talqin va tahlil qilish ham muhim bo'lib, pedagoglar bir parametrli logistik modellar, ularning element tasnifi chiziqlari, element ma'lumot chiziqlari, test tasnifi chiziqlari va test ma'lumoti chiziqlari va elementlar qiyinligini bir parametrli logistik model bilan aniqlash haqidagi boshlang'ich ma'lumotlarga ega bo'lishi talab etiladi. Pedagoglar bu bilimlarga ega bo'lishi uchun ularning bilimlarni baholash testlarini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti bo'yicha malakalari oshirilishi lozimligini va pedagoglar bunday bilim va malakaga ega bo'lmasa, sifatli va to'g'ri baholashga amalda erishib bo'lmasligini ta'kidlab o'tmoqchimiz.

ADABIYOTLAR

1. Bloom, B. S.; Engelhart, M. D.; Furst, E. J.; Hill, W. H.; Krathwohl, D. R. (1956). *Taxonomy of educational objectives: The classification of educational goals. Handbook I: Cognitive domain*. New York: David McKay Company.
2. Sarah Sharratt, *Kembridj o'quv seminari materiallari*, 13-24 yanvar, 2021 yil.
3. Crocker L. and Algina J. (2008), *Introduction to classical and modern test theory*, Ohio: Cengage Learning.
4. Krathwohl, D.R., Bloom, B.S., & Masia, B.B. (1964). *Taxonomy of educational objectives: The classification of educational goals. Handbook II: Affective domain*. New York: David McKay Co.
5. Dave, R.H. (1975). *Developing and writing behavioral objectives*. (R J Armstrong, ed.).
6. Harrow, A.J. (1972). *A taxonomy of the psychomotor domain*. New York: David McKay Co.
7. Pohl, M. (2000) *Learning to Think, Thinking to Learn: Models and Strategies to Develop a Classroom Culture of Thinking*. Cheltenham, Australia: Hawker Brownlow Education.
8. [https://www.qacps.org > lib > Domain > BloomsPres](https://www.qacps.org/lib/Domain/BloomsPres).
9. <https://www.educationise.com/post/30-bloom-s-taxonomy-examples-of-learning-objectives-for-teachers>.
10. Ermamatov M.Dj., Sulaymanov A.A., Baratov A.A., *Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim tizimi va uning baholash usullari*, *Axborotnoma*, 1, 2020, 45-62 b.

ROLE OF BLOOM'S TAXONOMY WITH IN EDUCATIONAL ASSESSMENT

**M .Dj. Ermamatov¹, A.A. Baratov², Z.Z. Mirvaliev¹,
A.B. Normurodov², A.A. Sulaymonov¹**

*¹State Test Center under the Cabinet of Ministers of Republic Uzbekistan,
Tashkent 100084, Bogishamol st. 12.*

*²Scientific-study Practical Center under the State Test Center under the
Cabinet of Ministers of Republic Uzbekistan*

Abstract. In the paper Bloom's taxonomy and its importance in the education are discussed.

Keywords: Bloom's taxonomy, knowledge, understanding, application, analysis, syntheses, evaluation.

YOZISH KO'NIKMASINI TEKSHIRISHDA BAHOLOVCHILAR O'RTASIDAGI ISHONCHLILIK

A.A. Abbosov

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, 100084, Toshkent sh., Bog'ishamol k., 12

Qisqacha mazmuni. Ushbu maqolada Davlat test markazi tomonidan o'tkaziladigan chet tilini bilish darajasini baholash test sinovlari "Yozma ish" bo'limi natijalari tahlili keltirilgan hamda baholovchi ekspertlar ishini monitoring qilish va standartlashtirish masalasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: yozish ko'nikmasi, baholash mezonlari, baholash sxemasi, valit baholash, analitik baholash, ishonchlilik, baholovchilar o'rtasidagi ishonchlilik, korrelatsiya koeffitsiyenti.

Kirish

Yozish ko'nikmasini baholash va qo'yilgan baholarning ishonchliligi pedagogik o'lchovlar fanida qizg'in bahsmunozaralarga sabab bo'lgan mavzulardan biridir. Yozish ko'nikmasini tekshiruvchi topshiriqlar (esse, xat, bayon va h.k.) baholashning subyektivligi nuqtayi nazaridan doimiy tanqid ostida bo'lib, ko'plab ilmiy tadqiqotlar baholovchi mutaxassislarda ichki

ishonchlilik hamda boshqa baholovchilar bilan yakdillik yetishmasligini ko'rsatgan [1]. Shunga qaramay, yozish ko'nikmasini yuqoridagi shaklda tekshirish chet tillarini bilish darajasini baholash amaliyotida keng qo'llanib kelinmoqda. Yozish ko'nikmasini baholash ishonchli o'lchov vositalari asosida, malakali mutaxassislar ishtirokida amalga oshirishi talab etiladi.

1. Baholash mezonlari

Yozish ko'nikmasini baholashda subyektivlikni kamaytirish yoki jilovlashning eng samarali usuli mutaxassislariga aniq baholash mezonlari va baholash sxemasini taqdim etish hisoblanadi. Baholash sxemasi yaxlit yoki murakkab sxema shaklida yaratilishi mumkin. **Yaxlit baholash sxemasida** yozma ishga umumiy taassurot asosida yagona baho qo'yiladi. **Murakkab (analitik) baholash sxemasida** esa

yozish ko'nikmasining turli elementlari (topshiriqning bajarilishi, matn yaxlitligi, imlo, punktuatsiya va h.k.)ning har biri alohida baholanadi. Analitik baholash sxemalari yaxlit baholash sxemalariga nisbatan ishonchliroq hisoblanadi [2]. Chunki umumiy taassurot asosida berilgan baho va xulosalar ayrim hollarda aldamchi bo'lishi, turlicha rivojlanish bosqichida turgan yozish ko'nikmasi elementlari haqida batafsil ma'lumot bera

olmasligi mumkin. Analitik baholash sxemalari esa yaratish va qo'llash jihatidan murakkab bo'lib, katta tajriba va xarajat talab qiladi.

Davlat test markazi tomonidan o'tkaziladigan chet tilini bilish darajasini baholash (multi-level) test sinovlarida analitik baholash sxemasi qo'llanadi. Yozish ko'nikmasini baholash uchun yaratilgan sxema quyidagi mezonlardan iborat [3]:

- topshiriqning bajarilishi;
- grammatik xilma-xillik va aniqlik;
- so'z boyligi;
- matn yaxlitligi va bog'lanish.


Har bir mezon bo'yicha 2-9 ball oralig'ida baho qo'yiladi. Har bir mezon bo'yicha 8-9 ball C1 darajasini, 6-7 ball B2 darajasini, 4-5 ball esa B1 darajasini ifodalaydi.

2. Ishonchlilik

Ishonchlilik validlikning muhim shartlaridan biri bo'lib, test natijalarining barqarorligini ifodalaydi. Turli pedagogik o'lchov vositalari uchun ishonchlilik turlicha hisoblanishi mumkin: ichki barqarorlik koeffitsiyenti, test-qayta test koeffitsiyenti, Rash modeli asosida test ma'lumot funksiyalari va h.k. [4]. Yozish ko'nikmasi kabi subyektivligi yuqori imtihonlarda esa ishonchlilik baholovchi mutaxassislarning qay darajada barqaror

baholashidan iborat. Baholovchilar ishonchliligining ikki xil ko'rinishi mavjud:

- Baholovchining o'z ichki barqarorligi (intra-rater) – turli payt va vaziyatlarda barqaror baholay olish;
- Turli baholovchilar o'rtasidagi yakdillik (inter-rater) – ikki va undan ortiq baholovchilarning o'zaro mutanosib baholashi.



1-rasm. Pirson korrelatsiya koeffitsiyenti grafigi

Baholovchilar ishonchliligini hisoblashning eng keng tarqalgan usuli Pirson korrelatsiya koeffitsiyenti hisoblanadi. Korrelatsiya – bu ikki o'zgaruvchi

o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi hamda -1 va +1 oralig'ida bo'ladi [5]. Korrelatsiyaning manfiy qiymati teskari proporsional munosabatni, musbat

qiymati esa to'g'ri proporsional munosabatni ifodalaydi. Ushbu qiymatning 0 ga yaqin bo'lishi o'zgaruvchilar o'rtasida hech qanday bog'liqlik mavjud emasligini ko'rsatadi (1-rasm).

Korrelatsiya koeffitsiyentining 0,70 dan yuqori bo'lishi o'zgaruvchilar

o'rtasida kuchli to'g'ri proporsional munosabat mavjudligini ifodalaydi [5]. Baholovchilar ishonchli deb topilishi uchun ushbu qiymat kamida 0,70 bo'lishi talab etiladi [6].

3. Ishonchli baholashni ta'minlash usullari

Baholovchilar ishonchliligini doimiy monitoring qilish test sinovlari sifatini va adolatli baholashni ta'minlashning muhim elementi hisoblanadi. Baholovchi ekspertlar to'g'ri ishlashini ta'minlash uchun ular, avvalo, yetarli tayyorgarlikka ega bo'lishi, ularning faoliyati doimiy monitoring orqali muvofiqlashtirilishi kerak. Quyidagi usullar orqali baholovchilar to'g'ri va sifatli ishlashini nazorat qilish mumkin:

1. **Nazorat paketi** (Control item, Reliability scripts) usuli – baholash jarayoni boshlanishidan oldin yuqori malakali yetakchi ekspertlar tomonidan ma'lum bir miqdor ishlar baholanadi va baholash jarayoni davomida baholanmagan ishlar bilan birga baholovchi ekspertlarga taqdim etiladi [7]. Yetakchi mutaxassis bilan katta farq yuzaga kelsa (korrelatsiya qiymati minimumdan tushib ketsa), belgilangan baholar bekor qilinadi

va ushbu mutaxassis qayta tayyorlash uchun yuboriladi.

2. **Qayta baholash** (Routine double check) usuli – har bir yozma ish namunasi ikki marta baholanadi [8]. Bunda baholovchi mutaxassislar bir-biridan mustaqil qaror qabul qiladilar. Ikkita ekspert qo'ygan baho keskin farq qilsa, ushbu ish uchinchi marta baholanadi. Har ikki baholash natijalarini o'zaro solishtirish orqali korrelatsiya qiymati hisoblanadi va belgilangan minimumdan past ko'rsatkich qayd etgan mutaxassislar qayta tayyorlash uchun yuboriladi.

Davlat test markazida baholovchilar ishonchliligini monitoring qilishning ikkinchi usuli – qayta baholash usuli qo'llanadi. Baholovchilar o'rtasidagi ishonchlilik Pirson korrelatsiya koeffitsiyentini hisoblash orqali aniqlanadi.

4. Ko'p darajali (Multilevel) test sinovlari yozish ko'nikmasi natijalari tahlili

Davlat test markazi tomonidan o'tkazilgan chet tilini bilish darajasini baholash test sinovlarining yozma ish bo'limi natijalari statistik tahlillar uchun

mo'ljallangan SPSS dasturi yordamida klassik test nazariyasi asosida tahlil qilindi.

1-jadval

Mart va aprel oylaridagi imtihonlarda qayd etilgan baholovchilar o'rtasidagi ishonchlilik koeffitsiyentlari

Imtihon o'tkazilgan oy	Talabgorlar soni	Tekshirish bosqichi	O'rta qiymat	Standart tafovut	Baholovchilar ishonchliligi* (inter-rater)
Mart	1099	1-ekspert	24,08	6,23	0,876
		2-ekspert	24,21	6,26	
Aprel	2420	1-ekspert	23,10	5,94	0,857
		2-ekspert	23,56	6,07	

*Korrelatsiya 0,01 darajada ahamiyatli (ikki taraflama)

2-jadval

Har bir baholash mezonini bo'yicha qayd etilgan baholovchilar o'rtasidagi ishonchlilik koeffitsiyentlari

Baholash mezonini	Ekspertlararo ishonchliligi* (inter-rater)	
	Mart	Aprel
Topshiriqning bajarilishi	0,824	0,794
Grammatik xilma-xillik	0,821	0,800
So'z boyligi	0,825	0,798
Matn yaxlitligi va bog'lanish	0,827	0,808

*Korrelatsiya 0,01 darajada ahamiyatli (ikki taraflama)

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, Pirson korrelatsiya koeffitsiyentining yuqori qiymati qayd etilgan (1-jadval). Ushbu ko'rsatkich ekspertlar orasida yakdillik yuqoriligini va test natijalariga ishonchlilik yuqori ekanligini ifodalaydi. Har bir baholash mezonini

bo'yicha alohida korrelatsiya qiymati esa umumiy korrelatsiyaga nisbatan pastroq ko'rsatkich qayd etgan (2-jadval). Bunga sabab turli baholash mezonlari bo'yicha farqlar umumiy ballda yaxlitlanishi va yakuniy natijaning barqarorlashishi hisoblanadi.

Xulosa

Yozish ko'nikmasini baholash subyektivlikni minimallashtirish hamda aniq va adolatli baholashni tashkil etish nuqtayi nazaridan juda murakkab jarayon hisoblanadi. Test natijalarining barqarorligini ta'minlash uchun baholashda foydalaniladigan pedagogik o'lchov

vositalari (baholash mezonlari va baholash sxemalari) to'g'ri shakllantirilishi, baholash jarayonida ishtirok etuvchi ekspertlarni yetarlicha tayyorgarlikdan o'tkazish va baholash jarayonini doimiy monitoring qilib borish talab etiladi. Baholovchilar o'rtasidagi

ishonchlilik statistik tahlillar orqali aniqlanadi. Test natijalari ishonchliligini ko'rsatuvchi Pirson korrelatsiya koefitsiyenti qiymati 0,70 dan katta bo'lishi lozim.

Davlat test markazi tomonidan o'tkaziladigan ko'p darajali test sinovlari

yo'zish ko'nikmasini baholashda qayd etilgan yuqori ishonchlilik ko'rsatkichi ($r > 0,80$) yozma ishlarni tekshirish jarayoni to'g'ri yo'lga qo'yilganligi va baholovchi mutaxassislar faoliyatining sifat ko'rsatkichi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Kayapınar, U. (2014). Measuring essay assessment: Intra-rater and inter-rater reliability. *Eurasian Journal of Educational Research*, 57, 113-136
<http://dx.doi.org/10.14689/ejer.2014.57.2>
2. Weigle, S.C. (2002). *Assessing writing*. Cambridge, UK: Cambridge University Press.
3. https://dtm.uz/page/cefr_write
4. AERA, APA, & NCME (2014). *Standards for Educational and Psychological Testing: National Council on Measurement in Education*. Washington DC: American Educational Research Association.
5. <https://www.statisticshowto.com/probability-and-statistics/correlation-coefficient-formula>
6. Kline, P. (1986). *A handbook of test construction: introduction to psychometric design*. London: Methuen.
7. O'Sullivan, B., Dunlea, J., Spiby, R., Westbrook, C., & Dunn, K. (2020). *Aptis General Technical Manual*. Technical report (TR/2020/001). London: British Council.
8. Wang, P. (2009). The Inter-rater Reliability in Scoring Composition. *English Language Teaching*, 2(3), 39-43.

INTER-RATER RELIABILITY IN ASSESSING WRITING

A.A. Abbosov

*State Test Center under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan,
100084, Tashkent, Bogishamol st., 12*

Abstract. This article provides an analysis of the results of the Writing section of the foreign language proficiency test conducted by State Test Center under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan and discusses the issue of monitoring and standardization of the rating procedure of the writing skill.

Keywords: writing skill, rating criteria, rating rubrics, holistic rubrics, analytic rubrics, reliability, inter-rater reliability, correlation coefficient.

APROBATSIYA TEST SINOVLARI ORQALI MAQBUL STATISTIK PARAMETRLARNI ANIQLASH

M.Dj. Ermamatov¹, A.R. Sattiyev¹, Sh.Sh. Nishonboyev¹, Sh.S. Namozov¹,
A.A. Baratov², Z.O. Olimbekov¹, A.A. Sulaymonov¹, Z.Z. Mirvaliyev¹

¹) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, 100084, Toshkent sh., Bog'ishamol k., 12


²) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi huzuridagi Ilmiy-o'quv amaliy markazi, 100084, Toshkent sh., Bog'ishamol k., 12

Qisqacha mazmuni. Ushbu maqolada qayta olingan aprobatsiya testlari bilan statistik parametrlarni fiksirlash muhokama qilindi. Tadqiqot uchun ingliz tili fani bo'yicha ikki marta o'tkazilgan aprobatsiya test sinovlari natijalari olindi.

Kalit so'zlar: qiyinlik, taqsimot, tavsif statistikasi, distraktorlar, Rash modeli, Rayt xaritasi.

Test sinovlari natijalarining validligi va ishonchliligini oshirish uchun test topshiriqlari ekspertizadan o'tkazilgandan keyin aprobatsiya test sinovlari o'tkazilishi pedagogik o'lchovlar nazariyasi va amaliyotida belgilangan [1].

Mazkur jarayon Davlat test markazi amaliyotida o'z o'rnini topgan bo'lib, quyidagi 1-rasmdagi keltirilgan sxema bo'yicha amalga oshiriladi.



1-rasm. Test natijalarining ishonchliligi va validligini oshirish uchun amalga oshiriladigan jarayon sxemasi.

1-rasmda keltirilgan sxemaning har bitta bosqichi alohida mustaqil jarayon hisoblanadi. O'tkazilgan aprobatsiya testlari daslabki aprobatsiyaga nisbatan pedagogik o'lchov ko'rsatkichlarining belgilangan maqsad tomon qanday o'zgarganligini nazorat qilish uchun o'tkazilishi mumkin. Asosiy maqsad test sinovi natijalari ishonchli va valid bo'lishidir. Shu o'rinda ishonchlilik va validlik faqat ta'lim muassasalariga o'qishga kirish testlari natijalariga emas, balki har qanday imtihon natijalariga – o'quvchilarning, talabalarning va talabgorlarning joriy, oraliq va yakuniy imtihonlariga ham tegishli ekanligini ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Aprobatsiya testlarini o'tkazish uchun uning maqsad va mezonlarini belgilab olish, metodikasini ishlab chiqish lozim bo'ladi. Eng asosiy mezonlardan biri guruhlar representativligidir. Bu mezon-ga ko'ra aprobatsiyada tanlangan guruhlar (tanlanmalar) imkon darajasida kelajakda imtihon qilinadigan sinaluvchilar guruhiga mos bo'lishi lozim, aks holda xulosalar ishonchsiz bo'lib qolishi tabiiydir. Ushbu maqolada representativlikni ta'minlash uchun oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishiga o'qishga kirish uchun tayyorgarlik ko'rayotgan akademik litsey, ixtisoslashtirilgan va oddiy umumta'lim maktablari aprobatsion tadqiqot ob'yekti sifatida tanlandi.

Test topshiriqlari soni va sinaluvchilar soni ham muhim kattaliklar hisoblanadi. [2] da klassik test nazariyasi asosida barqaror natijalar olish uchun kamida 200 nafar sinaluvchining

natijalarini tahlil qilish yoki sinaluvchilar soni test topshiriqlari sonidan 5-10 baravar ko'p bo'lishini tavsiya qiladi. Pedagogik o'lchovlarning zamonaviy test nazariyasida test topshiruvchilar soni model tanlanishiga bog'liq bo'lib, kamida 200 nafar sinaluvchi bo'lishi kerakligi e'tirof etilgan. Yevropa psixologlari assotsiatsiyasi federatsiyasi tanlanma o'lchovi ma'lumotlariga ko'ra (The European Federation of Psychologists' Associations (EFPA)) bir parametrli modellar uchun sinaluvchilar soni 200 ta, ikki parametrli modellar uchun 400 ta, uch parametrli modellar uchun 700 ta bo'lishi yetarli deb hisoblaydi.


Ushbu maqola tahlili uchun klassik nazariya va Rash modeli ishlatilgani uchun ingliz tili bo'yicha aprobatsiyada 1-aprobatsiya test sinovida 5 nafar sinaluvchi, 2-aprobatsiyada 2 nafar sinaluvchi barcha test topshiriqlarini to'g'ri yechganliklari uchun ularning natijalari tahlilida hisobga olinmadi, natijada 1-aprobatsiya test sinovida 420 nafar sinaluvchidan 415 tasing va 2-aprobatsiyada 432 nafar sinaluvchidan 430 tasing qatnashganligini yetarli deb hisoblash mumkin. Statistik tahlilda barcha test toshiriqlariga javob berish yoki birorta ham test topshirig'iga javob bermaslik holati o'zlashtirish darajasini aniqlashda ma'lumot yo'qotish bilan teng, shuning uchun ham variantlarda ishlanmagan test topshiriqlari "zaxirasi" bo'lgani afzaldir. 30 ta test topshirig'idan iborat variantlarda sinaluvchilar kamida 2 ta test topshirig'iga va ko'pi bilan 27-28 ta test topshirig'iga javob bergan bo'lsalar maqsadga muvofiq hisob-

lanadi. Albatta variantni bunday qilib tuzish fan mutaxassislari uchun oson bo‘lmaydi. Test topshiriqlari soni ko‘proq bo‘lganda buni ta‘minlash osonroq bo‘ladi. Masalan, ingliz tili bo‘yicha xalqaro IELTS testlarida bunday holat ta‘minlanganligini ko‘rish mumkin.


Test topshiriqlari soni tahlil uchun muhim omillardan biri. Albatta kam sondagi test topshiriqlariga nisbatan, ko‘p sondagi test topshiriqlari bilan bilimlarni baholash aniqroq, chunki oddiygina bir shaxsni 10 ta savoldan ko‘ra 100 ta savol bilan sinaluvchining bilimni aniqlash nisbatan aniqroq natija berishi tabiiy. Imtihon jarayonida 100 ta savol bilan shaxsni zeriktirib, charchatib qo‘yish muammosi bor, albatta. Shuning uchun ko‘pchilik g‘arb mamlakatlarida bitta fan bo‘yicha testlar qisqa muddatda ko‘p test topshirig‘idan iborat bo‘lgan testlar o‘rniga muntazam har xil testlar bilan bilim darajasi aniqlanishi amaliyotga keng joriy qilingan. Masalan, Kembrij universitetining fizika fani bo‘yicha “A”

darajasini olish uchun oxirgi ikki yil bosqichidagi o‘quvchilar 40 ta yopiq testlardan iborat 1-variantni (Paper 1 Multiple choice), “AS” daraja uchun 7 ta ochiq test topshirig‘idan iborat 2-variantni (Paper 2 AS Level Structured Questions), 2 ta amaliyotga oid test topshirig‘idan iborat 3-variantni (Paper 3 Advanced Practical Skills 1), “A” daraja uchun 12 ta ochiq test topshirig‘idan iborat 4-variantni (A Level Structured Questions) va 2 ta yuqori kognitiv darajani tekshiradigan (Paper 5 Planning, Analysis and Evaluation) 5-variantni ikki yil davomida o‘tkaziladigan barcha test sinovlari davomida yetarli ball olishlari belgilab qo‘yilgan [3].

Ingliz tili fanidan aprobatsiya testlarida tuzilgan variantda 30 ta test topshirig‘i ishlatildi. Xom ballar hisoblanganda, bu sinaluvchilarni ko‘pi bilan 0, 1, ... 30 ball oladigan 31 ta guruhlariga ajratadi.



a)



b)

2-rasm. 1-(a) va 2-(b) aprobatsiyada sinaluvchilar to‘g‘ri tanlagan javoblarining taqsimoti

Ingliz tili fanidan 1- va 2-aprobatsiyalarda sinaluvchilarning olgan

ballar taqsimoti 2-rasmda (a va b) keltirilgan.

2-rasmda keltirilgan taqsimotlar 3 ta tanlanma guruhni ko'rsatib turibdi. Distraktorlar va 0 yoki 100 foizlik natija muammosini oldi olinishi uchun tushunarli qilib aytganda, test topshiriqlari qiyinlik darajasi taqsimotini o'rtacha sinaluvchilar to'g'ri javoblari sonini (dixotomik ma'lumotlar uchun ball bilan to'g'ri javoblar soni bir xil bo'lganligi uchun keyingi o'rinlarda "ball" terminini ishlatamiz) maksimal to'g'ri javoblar sonining (ballning) 50 foiziga to'g'ri keladigan qilib tanlash tavsiya qilindi.

O'tkazilgan 1-aprobatsiya testida sinaluvchilarning o'rtacha to'plagan ballari 18,3 ga teng bo'ldi, bu 15 ballga nisbatan biroz ko'p, shuning uchun klassik va zamonaviy test nazariyalari hisoblariga asoslanib variantning qiyinlik taqsimotiga o'zgartirishlar kiritish tavsiya qilindi. 1-aprobatsiya variantidagi qiyinlik taqsimotini tasavvur qilish variantdagi test topshiriqlariga sinaluvchilar 28,92 va 82,41 foiz oralig'ida to'g'ri javob berganlariga e'tibor qaratamiz. Bu variantda qiyinlik darajasi o'ta yuqori bo'lgan test topshiriqlari mavjud emasligini bildiradi. Bu holat aslida muammo keltirib chiqarmaydi, o'rta qiyinlikdagi test topshiriqlari sinaluvchilar ichidan qobiliyatlarini yaxshi ajratadi va qobiliyat darajasi pastroq bo'lgan sinaluvchilar uchun ham test topshiriqlari mavjuddir.

Muammolar variantda faqat qiyinlik darajasi "o'ta yuqori" yoki "o'ta past" bo'lgan test topshiriqlaridan iborat bo'lgan test topshiriqlaridan iborat bo'lganda

paydo bo'lishi mumkin. Birinchi holatda hech kim test topshiriqlarini yecha olmasligi, ikkinchi holda esa barcha test topshiriqlari to'g'ri yechilganligi sababli qobiliyatlar ajralmay qoladi va shu nuqtayi nazardan yuqorida keltirilgan tavsiya birinchi holat ehtimolligining oldini oladi. Mazkur holatni klassik test nazariyasi bilan tahlil qilish uchun o'rtacha qiymat ($O'Q$), Kronbax alfasi (α), o'lchashlarning standart xatoligini ($O'SX$) bilgan holda 68, 95 va 99 foizlik ishonchlilik oraliqlarini hisoblab ko'rsatish mumkin.

1- va 2-jadvallarda 1- va 2-aprobatsiyalarda ishonchlilik oraliqlarini hisoblash uchun kerak bo'ladigan katta taliklar va ballarning o'rtacha qiymati uchun ishonchlilik oraliqlari keltirilgan.

2-jadvalda 68, 95 va 99 foizlik ishonchlilik oraliqlari ishonchlilik foizi oshib borishi bilan ortishini, muhimi har 2 ta aprobatsiyada ham o'rtacha ball maksimal balldan ancha uzoqdaligi va bu 100 foizlik natija muammosini keltirib chiqarmasligini ko'rsatmoqda.

Statistik tahlil natijalariga asosan berilgan tavsiyalardan keyin 2-aprobatsiya natijalari variantidagi qiyinlik taqsimotini tasavvur qilish variantdagi test topshiriqlariga sinaluvchilar 25,81 va 72,09 foiz oralig'ida to'g'ri javob berganlariga va bu 2-aprobatsiyada ballarning o'rta qiymati 15,43 bo'lishiga olib kelganligiga e'tibor qaratamiz. Bundan tashqari distraktorlar muammosi yuzaga kelmasligi uchun fan mutaxassislariga to'g'ri javob beradiganlarning taxminiy oralig'ini ko'rsatadi.

1-jadval

Ishonchlilik oralig‘ini hisoblash uchun kerak bo‘lgan kattaliklar

	k	dispersiya	α	O‘SX	O‘Q
1-aprobatsiya	30	51,36	0,899	2,28	18,30
2-aprobatsiya	30	43,24	0,865	2,41	15,43

2-jadval

68, 95 va 99 foizlik ishonchlilik oraliqlari

	1-aprobatsiya	2-aprobatsiya
68CI	16,0-20,6	13,0-17,8
95CI	13,8-22,8	10,7-20,2
99CI	12,4-24,2	9,2-21,6

Quyidagi 3-jadvalda ingliz tili fani bo‘yicha 2022-yil fevral oyida o‘tkazilgan 1-aprobatsiya natijalarining tahliliga ko‘ra, 5 foizdan kam sinaluvchilar

javob bergan test topshiriqlarining ID raqamlari, bazadagi distraktorlari va ularni tanlagan sinaluvchilar foizi keltirilgan.

3- jadval

Distraktorlar tahlili

Distraktor	ID test topshiriq raqami va to‘g‘ri javob (foizda)					
	366923	366927	366987	366956	366971	366973
B	3	4	5			
C				4		
D					4	3

Muqobil javoblarga 5 foizdan kam test topshiruvchilar javob bergan bo‘lsa, bunday muqobil javoblar distraktorlik vazifasini bajarmagan hisoblanishi [4], shu sababli bunday test topshiriqlarining distraktorlarini o‘zgartirish tavsiya qilingan edi.

Ingliz tili fani bo‘yicha o‘tkazilgan 2- aprobatsiya natijalarining statistik tahlili natijasiga ko‘ra, ushbu variantdagi distraktorlarning barchasiga 5 foizdan ko‘p sinaluvchilar javob berishgan va

o‘tkazilgan statistik tahlil natijalariga ko‘ra ishlamaydigan distraktorlar aniqlanmadi.

Aprobatsiya test sinov natijalarining zamonaviy test nazariyasi bo‘yicha tahlili

Zamonaviy test nazariyasi – ingliz tilida “item response theory” (IRT) deb nomlanadi. Bu “elementlarga javob nazariyasi” yoki “elementlarga reaksiya” degan ma’noni anglatadi. IRT faqat savollarga javoblarnigina baholamasdan,

balki turli xildagi so'rovnomalarni baholashda ham ishlatiladi. Shuning uchun ham bu nazariyada "test topshirig'i" o'rnida "element - (item)" so'zini ishlatish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Keltirilayotgan tahlilda "test topshirig'i" tushunchasi va "element tushunchasi" bir xil ma'noda ishlatilishini ta'kidlab o'tamiz.

IRT bu matematik model bo'lib, yashirin xarakteristikalar (bilim, stress, munosabat) uni namoyon qiluvchilari (kuzatilgan natija, javoblar) bilan o'zaro bog'liqligini ifodalaydi. U instrument, ya'ni test variantidagi savollarning, bu savollarga javob berayotgan sinaluvchilarning va shu asosda yashirin xarakteristika xususiyatlari (parametrlari) orasidagi bog'liklikni o'rnatadi. O'z navbatida IRT yashirin xarakteristika va o'lchov savollarini kuzatib bo'lmaydigan kontinuumda tartiblashgan deb hisoblaydi va shuning uchun ham uning asosiy vazifasi sinaluvchining o'sha kontinuumdagi joyini aniqlashdir [5-9].

Hozirgi vaqtda IRT modeli ko'p mamlakatlarda, jumladan, AQShda GRE, GMAT kabi yuqori darajali test sinovi

natijasini tahlil qilishda hamda bu model bilan aniqlangan test topshiriqlarining xarakteristik xususiyati bo'yicha test topshiriqlari bazasiga joylashtirishda keng foydalaniladi.

IRT parametrlari tajriba (eksperiment) va modellarni moslashtirish orqali topiladi va buni amalga oshirish uchun jahon tajribasida bir necha xil usullar ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi kunda IRT modellarida model parametrlarini aniqlash muhim rol o'ynaydi. Rash modeli bo'yicha bu parametrlar – yashirin qobiliyat va elementlar qiyinligidir.

Rash modeliga ko'ra, dixotomik elementlarga individual javoblar ehtimoli sinaluvchining qobiliyat darajasi va element qiyinligi bilan aniqlanadi, bu quyidagi matematik formula orqali ifodalanadi:

$$P(X_{is} = 1 | \theta_s, b_i) = \frac{e^{\theta_s - b_i}}{1 + e^{\theta_s - b_i}},$$

bu yerda, $X_{is} = 1$ s -o'quvchining i elementga to'g'ri javob berish ehtimolligi, θ_s -qobiliyat o'zgaruvchisi, b_i – topshiriq qiyinlik darajasi, e -natural logarifm asosi ($e = 2,7182818 \dots$).

4-jadval

Rash modeli bilan aniqlangan qiyinlik darajalari

Rash modeli							
1-aprobatsiya				2-aprobatsiya			
No	ID	b_i	$P(X_{is} = 1 \theta_s, b_i)$	No	ID	b_i	$P(X_{is} = 1 \theta_s, b_i)$
4	366923	-1,93	0,87	6	366930	-1,16	0,76
21	366981	-1,58	0,83	15	366968	-1,15	0,76
5	366927	-1,55	0,82	5	366927	-1,04	0,74
16	366971	-1,29	0,78	2	366921	-0,98	0,73
6	366930	-1,29	0,78	14	366966	-0,85	0,70
20	366980	-1,20	0,77	8	366936	-0,69	0,67

2	366921	-1,16	0,76	24	366987	-0,67	0,66
14	366966	-1,06	0,74	3	366922	-0,63	0,65
15	366968	-0,96	0,72	4	366923	-0,53	0,63
13	366960	-0,87	0,71	16	366971	-0,39	0,60
3	366922	-0,79	0,69	26	366991	-0,36	0,59
18	366973	-0,78	0,69	19	366974	-0,34	0,58
23	366983	-0,74	0,68	1	262110	-0,26	0,56
11	366946	-0,70	0,67	12	366956	-0,22	0,56
29	366997	-0,63	0,65	23	366983	-0,15	0,54
28	366996	-0,62	0,65	17	366972	-0,14	0,54
8	366936	-0,59	0,64	25	366989	-0,14	0,54
19	366974	-0,47	0,61	29	366997	-0,13	0,53
10	366945	-0,47	0,61	10	366945	0,06	0,48
22	366982	-0,44	0,61	20	366980	0,19	0,45
26	366991	-0,44	0,61	22	366982	0,21	0,45
24	366987	-0,29	0,57	21	366981	0,24	0,44
25	366989	-0,25	0,56	13	366960	0,25	0,44
1	262110	-0,11	0,53	11	366946	0,37	0,41
17	366972	-0,01	0,50	7	366931	0,37	0,41
12	366956	0,06	0,48	27	366995	0,47	0,38
9	366944	0,20	0,45	28	366996	0,48	0,38
7	366931	0,41	0,40	18	366973	0,53	0,37
27	366995	0,54	0,37	9	366944	1,14	0,24
30	367001	1,15	0,24	30	367001	1,27	0,22

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, IRT parametrlari tajriba va modellarni moslashtirish orqali topiladi. Bizning ishimizda tajriba bu ingliz tili fanidan test topshiriqlari natijalaridir.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, IRT parametrlari tajriba va modellarni moslashtirish orqali topiladi. Bizning tadqiqotimizda statistik tajriba ob’yekti - bu ingliz tili fanidan aprobatsiya test sinovi natijalaridir.


Test topshiriqlarining xususiyatlarini tahlil qilish uchun statistik tadqiqotlar uchun mo’ljallangan maxsus dasturdan foydalanildi [5].

4-jadvalda ingliz tili fanidan 1- va 2- aprobatsiya test sinovlarida bir parametrlilik Rash modeli bilan aniqlangan test topshiriqlarining qiyinlik darajalari keltirilgan.

4-jadvaldan o’rtacha qiyinlikdan bir standart birlik chapda bo’lgan test topshiriqlari soni bir standart birlik o’ngda bo’lgan test topshiriqlaridan ko’proq ekanligini ko’rish mumkin. Bu 1- rasmdagi birinchi aprobatsiya test topshiriqlari qiyinlik darajalarining qobiliyatlarga moslik grafigi – Rayt xaritasida [10] ham ko’rinadi. 1-rasmdan va 4-jadvaldan 1-aprobatsiya testi natijalariga ko’ra 12- va 17-test topshiriqlari koordinata boshiga yaqin-

ligini ko'rish mumkin. Rash modelida qiyinlik va qobiliyat darajalarini hisoblab bitta – logit shkalasiga o'tkazish mumkin. Logit shkalada 0 ga o'rtacha qiyinlik darajasi va o'rtacha qobiliyat mos keladi. Demak, 12- va 17-test topshiriqlariga o'rtacha qobiliyatli sinaluvchilarning

to'g'ri javob berish ehtimoli 0,5 ga yaqin. Haqiqatan, 4-jadvaldan 1-aprobatsiyada 12- va 17-test topshiriqlari uchun o'rtacha qobiliyat darajasidagi sinaluvchilarning test topshiriqlariga to'g'ri javob berish ehtimoli $P(X_{is} = 1|0, b_i)$ mos ravishda 0,50 va 0,48 ekanligini ko'rish mumkin.



3-rasm. Rayt xaritasi (1-aprobatsiya)

Keltirilgan 3-rasmdan test topshiriqlarining aksariyat qismi 0 dan pastda joylashganligini ko'rish mumkin. Bu esa variant ko'proq qobiliyat darajasi pastroq bo'lgan sinaluvchilar haqida ma'lumot berayotganligini bildiradi. Ideal holda variant qobiliyat darajasi yuqori va past bo'lgan sinaluvchilar haqida bir xil ma'lumot beradi va variantda barcha qobiliyatlar uchun test topshiriqlari mavjud bo'ladi. Bunday holda test topshiriqlari 3-rasmda to'g'ri chiziq bo'ylab joylashgan bo'lardi. Ideal holatga erishish qiyin, lekin shu g'oya asosida qiyinlik taqsimotini qobiliyat taqsimotiga mosligini yaxshilash mumkin.


Yuqoridagilarga asoslanib mutaxassislariga ingliz tili fanidan variantdagi 17-, 25-, 19-, 22-, 24-, 26-, 28-, 29-, 11-,

18-, 23-, 15-, 14-, 20-, 21-test topshiriqlari ichidan 4 tasini tanlab, ularning qiyinlik darajasi 30-test topshirig'iga nisbatan keskin o'zgartirmasdan oshirish yoki ularning o'rniga qiyinlik darajasi yuqoriroq bo'lgan 4 ta test topshirig'ini qo'yish tavsiya qilindi.

Ushbu tavsiyaga ko'ra mutaxassislar tomonidan 18- (366973 ID raqamli), 23- (366983 ID raqamli), 11- (366946 ID raqamli), 22- (366982 ID raqamli), 26- (366991 ID raqamli) va 24- (366987 ID raqamli) test topshiriqlarning qiyinlik darajasi o'zgartirilgan. Buning natijasida faqat 26- (366991 ID raqamli) va 24- (366987 ID raqamli) topshiriqlarining qiyinlik darajasi deyarli o'zgarmagan, qolgan test topshiriqlari qiyinlik darajasi oshganini 4-jadvaldan ko'rish mumkin.

18-(366973 ID raqamli) va 26-(366991 ID raqamli) test topshiriqlarining qiyinlik darajasining o'zgarishi distraktor o'zgarishiga ham ta'sir qilgan. Distraktorlar o'zgarishi, shuningdek, 4-(366923 ID

raqamli), 5-(366927 ID raqamli), 16-(366971 ID raqamli) va 12-(366956 ID raqamli) test topshiriqlarining qiyinlik darajalariga ham ta'sir qilgan.



4-rasm. Rayt xaritasi (2-aprobatsiya)

Bundan tashqari 2-aprobatsiyada 21-(366981 ID raqamli), 20-(366980 ID raqamli), 13-(366960 ID raqamli), 28-(366996 ID raqamli) va 9-(366944 ID raqamli) test topshiriqlarining qiyinlik darajalari oshirilgan.


Yuqoridagi o'zgarishlar amalga oshirilgandan keyin, 2-aprobatsiyada Rayt xaritasining ko'rinishi 4-rasmdagidek o'zgardi.

3-rasm va 4-rasmlar taqqoslanganda sinaluvchilar qobiliyati va test topshiriqlari qiyinlik darajalari taqsimotining o'rtaroqqa siljiganini ko'rish mumkin. Bu yuqorida so'z yuritilgan klassik nazariya natijalariga mos. 9-test topshirig'i 2-aprobatsiyada 1-aprobatsiyadagi "bo'sh" joyga ko'chgan bo'lsa-da, u bilan undan oldingi test topshiriqlari orasidagi "bo'sh" joy saqlanib qolgan.

Qobiliyat darajasi past bo'lgan sohada (0 dan past sohada) esa 1-aprobatsiyadagi "bo'sh" joy 2-aprobatsiyada to'ldirilgan.

Ushbu o'zgarishlarni zamonaviy test nazariyasida kiritilgan test ma'lumoti grafiklarini solishtirish bilan yaqqol ko'rish mumkin.

5-rasmda 1- va 2-aprobatsiyada aniqlangan test ma'lumoti grafiklari taqqoslangan, rasmdan ko'rinishicha 1-aprobatsiyada ishlatilgan variantdan qobiliyat darajasi past darajada bo'lgan sinaluvchilar to'g'risida ko'proq ma'lumot olish mumkinligini, 2-aprobatsiyada ishlatilgan variantdan esa qobiliyat darajasi yuqori va past darajada bo'lgan sinaluvchilar to'g'risida deyarli bir xil miqdorda ma'lumot olish mumkin.



5-rasm. 1- va 2-aprobatsiya natijalarini taqqoslash.

Bu chiziqlar tagidagi yuzalarni hisoblab miqdoriy taqqoslash bilan ham ushbu natijani ko'rsatish mumkin. Bu test variantining sinaluvchilar to'g'risida beradigan ma'lumotning foizlarda ifodalanishidir. 1-aprobatsiya test sinovida Testning umumiy ma'lumot miqdori 30,00 ga teng bo'lib, shundan (-3:3) oralig'idagi qobiliyatga ega bo'lganlar uchun ma'lumot miqdori 26,13 (87,11 foiz) ga teng. (-3:0) va (0:3) oraliklardagi qobiliyatga ega bo'lganlar miqdori mos ravishda 16,14 (53,8 foiz) va 9,99 (33,31 foiz) ga mos keladi. 2-aprobatsiya test sinovida Testning umumiy ma'lumot miqdori 30,00 ga teng bo'lib, shundan (-3:3) oralig'idagi qobiliyatga ega bo'lganlar uchun ma'lumot miqdori 26,66 (88,87 foiz) ga teng. (-3:0) va (0:3) oraliklardagi qobiliyatga ega bo'lganlar miqdori mos ravishda 14,13 (47,09 foiz) va 12,53 (41,78 foiz) ga mos keladi.

Oliy ta'lim muassasalari bakalavriat ta'lim yo'nalishlari qabul testlarida qo'llaniladigan ingliz tili fanidan test varianti misolida aprobatsiya testlarining klassik va zamonaviy test nazariyalari bo'yicha tahlilidan qiyinlik to'g'risida muhokamalarda alohida test topshirig'ining qiyinligi emas, balki variantning qiyinligi to'g'risida mulohaza yuritish maqsadga muvofiqi, test topshiriqlarining statistik ko'rsatkichlarini fiksirlashni tadqiqot olib borish va tadqiqot natijalarni tatbiq qilish bilan amalga oshirish mumkinligi va tadqiqotlar nafaqat test topshiriqlari va baholashni optimallashtirish uchun, balki test o'tkazish jarayonini mukammallashtirish va test topshiriqlari bazasini kalibrovka qilish va kompyuter adaptiv testlarini tasavvur qilish uchun ham o'ta muhimligi to'g'risida xulosalar qilish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Crocker, L. and Algina, J. (1986) Introduction to Classical and Modern Test Theory. Harcourt, New York, 527.
2. Nunnally, J. C. (1967). Psychometric Theory. New York: McGraw-Hill.
3. David Styles and Natasha Chowdhury, Uzbekistan STC Physics Training, 4-14 March, 2022.
4. Marie Tarrant, James Ware and Ahmed M Mohammed, BMC Medical Education, p.1-8.
5. Dimitris Rizopoulos (2006). ltm: An R package for Latent Variable Modelling and Item Response Theory Analyses, Journal of Statistical Software, 17 (5), 1-25.
6. Hambleton, R. K., Swaminathan, H., and Rogers, H.J. (1991), Fundamentals of item response theory. Newbury Park, CA: Sage.
7. Hambleton, R.K., Swaminathan, H., & Rogers, H.J. (1991), Fundamentals of item response theory. Newbury Park, CA: Sage.
8. Ivailo Partchev (2004), A visual guide to item response theory, Friedrich-Schiller-Universitat" Jena.
9. M.Dj. Ermamatov Zamonaviy test nazariyasi asoslari. Uslubiy qo'llanma., Toshkent sh., 2020 y., 68 bet.
10. Wright B D (1977), Solving measurement problems with the Rasch model, Journal of Educational Measurement 14 97-116.

DETERMINING APPROPRIATE STATISTICAL PARAMETERS THROUGH PILOTING TESTS

M.J. Ermamatov¹, A.R. Sattiev¹, Sh.Sh. Nishonboev¹,
Sh.S. Namozov¹, A.A. Baratov², Z.O. Olimbekov¹,
A.A. Sulaymonov¹, Z.Z. Mirvaliev¹

*¹State Test Center under the Cabinet of Ministers
of Republic Uzbekistan, Tashkent 100084, Bogishamol st. 12.*

*²Scientific-study Practical Center under the State Test Center
under the Cabinet of Ministers of Republic Uzbekistan*

Abstract. In this paper fixing the statistical parameters by the retaken piloting test is discussed. For the research the results of piloting tests on English, conducted two times, are taken.

Keywords: difficulty, distribution, descriptive statistics, distractors, Rasch model, Wright map.

TEST TOPSHIRIQLARI SONINING TEST NATIJALARIGA TA'SIRI

M.Dj. Ermamatov¹, A.R. Sattiyev¹, D.M. Alimov¹,
A.A. Baratov², A.A. Sulaymonov¹

¹O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Davlat test markazi, 100084, Toshkent sh., Bog'ishamol k., 12

²O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi
huzuridagi Ilmiy-o'quv amaliy markazi, 100084, Toshkent sh., Bog'ishamol k., 12

Qisqacha mazmuni. Ushbu maqolada test topshiriqlari sonining test natijalariga ta'siri ixtisoslashtirilgan maktablarning 5-sinfiga qabulida matematika va ona tili fanlaridan olingan test natijalari tahlili bilan ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: test topshiriqlari soni, tavsif statistikasi, Rayt xaritasi, test ma'lumoti funksiyasi.

1. Kirish

Test topshiriqlari ichki muvofiqligini ifodalovchi Kronbax alfasini ko'rsatuvchi koeffitsiyentining qiymatining kichikligi har bitta test topshirig'iga berilgan to'g'ri javoblarning umumiy ball bilan korrelyatsiyasiga, sinaluvchilar olgan umumiy ballarning standart og'ishiga, har bitta test topshirig'iga berilgan javoblarning standart og'ishlari yig'indisiga hamda test topshiriqlari va test topshiruvchilar soniga bog'liq bo'ladi [1].

Ideal holda test topshiriqlari qiyinlik (pastdan yuqoriga) darajasi bo'yicha va sinaluvchilar qobiliyati bo'yicha tartiblanganda biserial korrelyatsiya koeffitsiyentlari o'rta qiymatgacha oshib borib, keyin kamayadi va o'rtachaga nisbatan biserial korrelyatsiyalar qiymati simmetrik bo'ladi. Ammo real holatda juda qiyin test topshiriqlarining umumiy ball bilan korrelyatsiyasi javoblarni tasodifiy belgilashlar soni test topshirig'ini ishlab belgilagan sinaluvchilar soniga nisbatan ko'proq bo'ladi, shuning uchun ham test topshiriqlari o'ta qiyin bo'lganda tasodifiy belgilashlar soni qobiliyati past sinaluvchilarga imkoniyat berishi ham mumkin, bunda test

topshiriqlarining biserial korrelyatsiya qiymati manfiy bo'lib qoladi. Ushbu test variantida shunday holatni ko'rish mumkin. Qiyinlik darajasi past bo'lgan test topshiriqlariga sinaluvchilar javob berganlarida esa tasodifiy javob berish ehtimoli kam, shuning uchun bunday qiyinlik darajasi past bo'lgan test topshiriqlarining biserial korrelyatsiya koeffitsiyentlari kattaroq bo'ladi. Ammo variantda qiyinlik darajasi o'ta past bo'lgan test topshiriqlarining ko'p bo'lishi yana qobiliyat darajasi past bo'lgan sinaluvchilarga ko'proq imkoniyat beradi.

Umuman olganda, test topshiriqlarining biserial korrelyatsiyalari muvofiqligini ta'minlash uchun o'rtacha ball dan keskin uzoqlashmaslikni ta'minlash maqsadga muvofiq. Ideal holda qiyinlik darajalari oshib borish tartibida, qobiliyat darajalari kamayib borish tartibida joylashtirilganda biserial korrelyatsiya koeffitsiyentlari 0,5 dan boshlab oshib borgan va o'rtacha qiymatdan keyin 0,5 gacha kamaygan bo'lardi.

Ko'proq test toshirig'i bilan bilimni aniqroq baholash mumkinligi intuitiv jihatdan ham ma'lum: biz sinaluvchini ko'proq savol berib yaxshiroq bilib olishimiz mumkin. Statistik nuqtayi nazardan 10 ta test topshirig'ining 20 ta test topshirig'iga nisbatan bilimni aniqlash aniqligining pastligi yuqoridagi mulohazalardan undan olinishi mumkin bo'lgan ballarning o'rtacha qiymatdan uzoqlashish ehtimolligi 20 ta test topshirig'iga nisbatan kattaroq ekanligida namoyon bo'ladi. Shuning uchun IELTS, GRE va GMAT kabi yuqori stavkali testlarda test topshiriqlarining soni yetarli darajada ko'p qilib tanlanadi. Masalan, IELTS testlarida o'qish va eshitish kompetensiyalarining o'zida 40 tadan test topshirig'i mavjud.

2. Klassik test nazariyasi bo'yicha natijalar

Pedagogik o'lchovlarning nazariy asoslariga ko'ra har bir test varianti bo'yicha tuzilgan test topshiriqlari mazmuni ekspert tekshiruvidan o'tkazilgandan keyingi bosqichda test sinovlari o'tkaziladi. Testlarning xususiyatlari sifatini tashxislash uchun test sinovi natijalari asosida ularning statistik xarakteristikalar aniqlanadi. Statistik xarakteristikalar yordamida test topshiriqlariga qo'yilgan asosiy talablarning ko'rsatkichlari aniqlanadi. Topshiriqning qiyinligi, test ballarining dispersiyasi (o'zgaruvchanligi, farqlanishi), topshiriqning boshqa topshiriqlar bilan, shuningdek, umumiy ballar yig'indisi bilan korrelyatsiyasi (bog'liqligi) test topshiriqlariga qo'yiladigan asosiy talablar hisoblanadi. Topshiriqning qiyinlik darajasini aniqlash usullaridan biri topshiriqni empirik sinovdan o'tkazib, to'g'ri javoblar salmog'ini aniqlashdan iborat. Test ballari (yoki to'g'ri

Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining 4-sinf bitiruvchilarini ixtisoslashtirilgan maktablarga qabul qilish uchun jalb etilgan sinaluvchilarning natijalari o'rganildi.

Ular matematika (1-fan, 20 ta test topshirig'i) va ona tili (2-fan, 10 ta test topshirig'i) fanidan test topshirganlar. Test sinovida jami 728 nafar o'quvchi qatnashgan va 30 ta test topshirig'ini bajarish uchun 60 daqiqa vaqt berilgan. Ushbu maqolada 20 ta va 10 ta test topshiriqlaridan iborat bo'lgan variantlarning statistik ko'rsatkichlaridagi farqlarga e'tibor qaratiladi. Hisoblashlarda Rash modelining ltm paketidan [2] foydalanildi.

javoblar)ning dispersiyasi test topshiruvchilarning tayyorgarlik darajasini aniqlashga, bilimlilarni bilimsizlardan ajratishga imkon beradi.

Pedagogik testlarning asosiy statistik xarakteristikalar qatoriga o'rta qiymat, gistogrammani qurish, moda va mediana kabi ko'rsatkichlarni hisoblash hamda test ballarining umumiy dispersiyasi (standart og'ish)ni ham kiritish mumkin. Test ballari (yoki to'g'ri javoblar)ning o'rta arifmetik qiymati fanlar va boshqa muhim belgilar kesimida aniqlanadi. Bu ko'rsatkich test ballari o'rtasidagi tafovutlarni umumlashtiradi, ularga xos bo'lgan yo'nalishni, qonuniyatni ochib beradi. Test sinovlari natijalari asosida aniqlangan test ballari taqsimoti gistogrammasi quriladi va uning normal taqsimotga yaqinligi baholanadi. Gistogrammaning normal taqsimotga yaqinligi test sifatining yaxshiligini, test sinovlarining obyektiv o'tkazilganini

bildiradi. Test ballarining eng ko'p takrorlanadigan qiymati statistikada moda, o'sish tartibida joylashtirilgan test ballari qatorining o'rtasida joylashgan qiymati esa mediana deyiladi. O'rta arifmetik qiymat, moda va mediana qiymatlari o'zaro teng bo'lganda test ballari taqsimoti simmetrik bo'ladi. Ushbu statistik ko'rsatkichlar biri-biridan qanchalik ko'p farq qilsa, ballar taqsimoti normal taqsimotdan shunchalik uzoq bo'ladi.


1-jadvalda matematika fanidan test natijalarining tavsif statistikasi natijalari keltirilgan. 1-bo'limda muhokama qilinganlardan kelib chiqsak jadvaldan ma'lum bo'ladiki, test natijalari tavsif statistikasi natijalari juda yaxshi ekanligi, ya'ni o'rta qiymat test topshiriqlarining yarmiga yaqin, moda va mediana

qiymatlari o'rta qiymatga yaqin ekanligini, asimmetriya va ekstsess qiymatlari -1 va 1 oralig'ida ekanligini, dispersiya va standart og'ish katta ekanligini ko'rish mumkin. Taqsimot gistogrammasidan uning normal taqsimot chizig'iga juda yaqinligini, maksimal (20) va minimal (0) ball olganlar mavjud emasligi esa statistik hisoblashlarda xatolikning kam bo'lishini bildiradi. Ammo bunday 20 ta test topshirig'idan iborat bo'lgan test variantlarida ham maksimal va minimal ball muammosi ehtimolligi kichik emas. Ehtimollikni kamaytirish uchun esa qiyinlik taqsimoti oldindan normada bo'lishini ta'minlash maqsadga muvofiq. Bunda test spetsifikatsiyalari va statistik tahlillarning ahamiyati muhim.

1-jadval

Matematika fanidan test topshiriqlari natijalarining tavsif statistikasi ma'lumotlari

Test topshiruvchilar soni	728
O'rta qiymat	10,63
Mediana	11,00
Moda	12
Standart tafovut	3,866
Dispersiya	14,946
Asimmetriya	-0,078
Ekstsess	-0,843
Diapazon	18
Minimum	1
Maksimum	19



Statistik tahlilga ko'ra matematika fanidan test sinovi natijalari bo'yicha test variantining ishonchlilik koeffitsiyenti (Kronbax alfa koeffitsiyenti) 0,747 ga teng bo'ldi. Kronbax alfa koeffitsiyentining bu qiymati ushbu test

variantining ichki muvofiqligi "qoniqarli" ekanligini ko'rsatadi. Bu 20 ta test topshirig'i uchun erishilishi qiyinroq bo'lgan qiymat ekanligi 1-bo'limda muhokama qilingan edi.

Ushbu test uchun hisoblangan biserial korrelyatsiya koeffitsiyentlari 2-jadvalda keltirildi. Test topshiriqlari qiyinlik

darajasi eng pastidan boshlab eng yuqorisigacha 1 dan 20 gacha shartli raqamlangan.

2-jadval

Matematikadan test topshiriqlarining biserial korrelyatsiya koeffitsiyentlari

№	20	6	13	18	10	14	16	9	8	5
BKK	0,446	0,467	0,528	0,154	0,577	0,459	0,473	0,598	0,542	0,434
№	1	3	4	17	2	7	19	12	15	11
BKK	0,534	0,352	0,468	0,449	0,526	0,402	0,312	0,352	0,209	-0,088

Biserial korrelyatsiya koeffitsiyentlarining qiymati qiyinligi eng past bo'lgan test topshirig'i uchun ideal holatga (0,5 ga) yaqin bo'lgan 20-test topshirig'idan boshlanib 13-test topshirig'igacha oshib borgan. 18-test topshirig'iga yetganda esa keskin tushganini ko'rish mumkin. Ideal holatda (masalan, Guttman namunasi uchun) biserial koeffitsiyentlar 0,5 dan boshlanib, 10- va 14-test topshiriqlarigacha oshgan va 11-test topshirig'iga yetganda uning qiymati 0,5 bo'lishi kerak edi. Albatta, ideal holatga erishish juda qiyin, lekin mulohaza va xulosalar uchun ideal holat bilan solishtirish statistik tahlilda to'g'ri xulosalar chiqarish uchun juda foydali. Shuning uchun umuman olganda biserial korrelyatsiya koeffitsiyentlarining 0,5 dan katta bo'lishini qoniqarli deb hisoblash mumkin.

2-jadvaldan ushbu variantda biserial korrelyatsiya koeffitsiyentining o'zgarish tendensiyasi yomon emasligini ko'rish mumkin. 18-test topshirig'i, 11- va 3-test topshiriqlarining biserial korrelyatsiya koeffitsiyentlarining qiymati qiyinlik darajalariga mos emas. Variantdagi qiyinlik darajasi o'rtacha qiymatga nisbatan yuqoriroq bo'lgan test

topshiriqlari o'rtacha qiymatga nisbatan pastroq bo'lgan test topshiriqlariga nisbatan "og'irroq" ekanligini ham ko'rish mumkin. Bu 1-jadvaldagi ballarning o'rtacha qiymati va gistogrammada ham ko'rinadi.

10 ta test topshirig'idan iborat variant 20 ta test topshirig'idan iborat variantdan afzal emasligi umumta'lim maktablarining 4-sinf bitiruvchilarini ixtisoslashtirilgan maktablarga qabul qilishda ona tili va adabiyot fanidan (2- fan) olingan test sinovlari natijalarining tahlilida ko'rinadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, 10 ta test topshirig'ining o'rtacha qiymatdan uzoqlashish ehtimoli 20 ta test topshirig'iga nisbatan ko'proq, shuning uchun matematika fanidan 20 ta test topshirig'idan iborat test variantini yechganda birorta ham test topshirig'ini yechmagan va 100 foiz natijaga erishgan sinaluvchilar mavjud emas edi. Ona tili va adabiyot fani bo'yicha 10 ta test topshirig'idan iborat bo'lgan test natijalarida esa 21 nafar sinaluvchi barcha test topshiriqlariga noto'g'ri javob berishgan va 25 nafar sinaluvchi barcha test topshiriqlariga to'g'ri javob bergani uchun ularning qobiliyat darajalari

ajralmay qolgan. Bundan qobiliyat darajalari past bo‘lgan 21 nafar (yoki qobiliyat darajalari yuqori bo‘lgan 25 nafar) sinaluvchining qobiliyatlari o‘zaro teng degan natija chiqadi. Aslida esa ularning qobiliyat darajalari farq qilishi mumkin. Bu holatda 682 nafar


qatnashuvchining natijalari tahlil qilinishi mumkin.

3-jadvalda ona tili va adabiyot fanidan (2-fan) test topshiriqlari natijalarining tavsif statistikasi ma’lumotlari keltirildi.

3-jadval

Ona tili va adabiyot fanidan (2-fan) test topshiriqlari natijalarining tavsif statistikasi ma’lumotlari

Test topshiruvchilar soni	682
O‘rta qiymat	5,45
Mediana	6
Moda	6
Standart tafovut	2,220
Dispersiya	4,929
Asimmetriya	-0,150
Ekstsess	-0,875
Diapazon	8
Minimum	1
Maksimum	9



3-jadvaldan ona tili va adabiyot fani bo‘yicha testda ham matematika fanidagiga o‘xshash natijalarni ko‘rishimiz mumkin. Tavsif statistikasini 10 ta test topshirig‘i uchun qoniqarli deb hisoblash mumkin, ammo hisoblangan test topshiriqlarining ichki muvofiqligi 0,579 ligi “yomon” ko‘rsatkich hisoblanadi. 10 ta

test topshirig‘i bilan hattoki shunday natija olish ham qiyin bo‘lishini ideal (Guttman) namunalarning tahlili bilan ko‘rsatish mumkin. Bu kam sondagi test topshiriqlari sonining o‘rtachadan boshlab o‘zgarish intervali kichikligi bilan bog‘liq.

4-jadval

Ona tili va adabiyot fanidan test topshiriqlarining biserial korrelyatsiya koeffitsiyentlari

№	1	5	6	4	8	2	3	9	10	7
BKK	0,355	0,387	0,408	0,510	0,524	0,414	0,509	0,561	0,463	0,433

4-jadvaldan biserial korrelyatsiya koeffitsiyentlari 4- va 8-test topshiriqlarigacha oshib borib, keyin kamayganini ko'rish mumkin. Bu ona tili va adabiyot fani bo'yicha biserial korrelyatsiya koeffitsiyentlarining test top-

shiriqlari qiyinlik taqsimotiga ko'proq mos ekanligini ko'rsatadi, Kronbax alfasining kichikligini sababi esa korrelyatsiya tufayli emas, balki test topshiriqlari sonining kamligi tufayli ekanligi ma'lum bo'ladi.

3. Rash modeli asosida tahlil

5-jadvalda matematika fanidan test sinovi natijalarining Rash modeli bilan aniqlangan qiyinlik darajalari keltirilgan.

5-jadval

Rash modeli bilan aniqlangan qiyinlik darajalari


Matematika				Ona tili va adabiyot			
Raqam bo'yicha tartiblangan		Qiyinlik bo'yicha tartiblangan		Raqam bo'yicha tartiblangan		Qiyinlik bo'yicha tartiblangan	
№	b	№	b	№	b		
1	-0,132	20	-1,947	1	0,815	7	-1,207
2	0,282	6	-1,760	2	-0,371	10	-0,776
3	0,006	13	-1,406	3	-0,371	9	-0,407
4	0,032	18	-0,900	4	-0,160	2	-0,371
5	-0,145	10	-0,762	5	0,408	3	-0,371
6	-1,760	14	-0,677	6	0,175	8	-0,329
7	0,558	16	-0,670	7	-1,207	4	-0,160
8	-0,171	9	-0,642	8	-0,329	6	0,175
9	-0,642	8	-0,171	9	-0,407	5	0,408
10	-0,762	5	-0,145	10	-0,776	1	0,815
11	2,005	1	-0,132				
12	0,840	3	0,006				
13	-1,406	4	0,032				
14	-0,77	17	0,078				
15	1,336	2	0,282				
16	-0,670	7	0,558				
17	0,078	19	0,797				
18	-0,900	12	0,840				
19	0,797	15	1,336				
20	-1,947	11	2,005				

5-jadvaldan matematika bo'yicha variantda qiyinlik darajalari yaxshi taqsimlanganini – qiyinlik darajasi o'rtacha qiyinlikdan (logit 0,006 birlik) boshlab qiyinlik darajasi eng past va qiyinlik darajasi eng yuqori +2 (11-test topshirig'i) oralig'ida taqsimlanganini ko'rish mumkin. Qiyinlik darajasi 3-test topshirig'ining qiyinlik darajasidan katta bo'lgan test topshiriqlari 8 ta va past bo'lgan test topshiriqlari soni 11 ta. Ideal holda 0 dan katta va kichik oraliqda bir xil sondagi test topshiriqlari simmetrik taqsimlangan bo'lardi.


Ona tili va adabiyot fani bo'yicha test variantida ham qiyinlik darajalari yaxshi taqsimlanganini 4-jadvaldan ko'rish

mumkin: test topshiriqlari -0,776 va 0,815 logit birligi orasida tekis taqsimlangan, faqat 7-test topshirig'i kontinumda 1 standart birlikdan ortiq masofada joylashgan.

Test topshiriqlari qiyinlik darajalarining sinaluvchilar qobiliyatiga mosligini Rayt xaritasi (Wright map) [3] bilan ko'rsatish mumkin. 1-a rasmdan matematika bo'yicha test variantida qiyinlik taqsimoti juda yaxshi chiqqanini, ideal holatda 1-rasmdagi elementlar bir chiziqda bo'lishi mumkinligini tasavvur qilish bilan tushunish mumkin. Masalan, ushbu variantda ideal holda 19-, 17-, 3-, 5-, 14- va 16- test topshiriqlari "bo'sh" joylarda joylashgan bo'lardi.



a)



b)

1-rasm. Rayt xaritasi: a) matematika fani uchun b) ona tili va adabiyot fani uchun


1-b rasmdan ona tili va adabiyot fani bo'yicha test variantida ham qiyinlik

taqsimoti juda yaxshi chiqqanini, ideal holatda 1-b rasmdagi elementlar bir


chiziqda bo'lishi mumkinligini tasavvur qilish bilan tushunish mumkin. Masalan, ushbu variantda ideal holda 3- va 8- test topshiriqlari "bo'sh" joylarda joylashgan bo'lardi, lekin ona tili va adabiyot fani bo'yicha test topshiriqlari butun qobiliyatlarni qamrab ololmasligi, ya'ni

"bo'sh" joylarning hammasini ham to'ldirish imkoni yo'qligi rasmdan ko'rinib turibdi.

2-a va 2-b rasmlarda mos ravishda matematika va ona tili va adabiyot fanidan test ma'lumoti chiziqlari keltirilgan.



a)



b)

2-rasm. Test ma'lumoti chiziqlari: a) matematika fani uchun b) ona tili va adabiyot fani uchun

2-rasmdan matematika hamda ona tili va adabiyot fanlaridan olingan test ma'lumoti chiziqlari bir-biriga juda o'xshashligini ko'rish mumkin. Ammo ordinata o'qlaridagi sonlarga e'tibor qilsak, matematika fanidan olingan ma'lumot chizig'i ona tili va adabiyot fanidan olingan ma'lumot chizig'iga nisbatan qariyb 2 baravar ko'proq yuzani egallaganini, bu esa test natijalariga ko'ra matematika fanidan ona tili va adabiyot faniga nisbatan deyarli 2 baravar ko'p ma'lumot olish mumkinligini bildiradi.

Test natijalari test topshiriqlarining soniga bog'liqligi ixtisoslashtirilgan maktablarning 5-sinfiga qabulida ishlatilgan matematika hamda ona tili va

adabiyot fanidan o'tkazilgan test sinovlari natijalarining statistik tahlili bilan ko'rsatildi. Klassik test nazariyasi doirasida test topshiriqlarining soni kam bo'lganda tavsif statistikasi va biserial korrelyatsiya koeffitsiyentlari uchun yaxshi natijalar olingan taqdirda ham test topshiriqlarining kerakli darajadagi ichki muvofiqligiga erishish qiyinligi ko'rsatildi. Rayt xartasida esa topshiriqlarning kamligi "bo'sh" joylarning hosil bo'lishiga olib keladi. Test ma'lumoti funksiyasi esa kam sondagi test topshiriqlari sinaluvchilarning qobiliyati haqida yetarli ma'lumot bermasligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Crocker, L. and Algina, J. (1986) Introduction to Classical and Modern Test Theory. Harcourt, New York, 527.
2. Dimitris Rizopoulos (2006). ltm: An R package for Latent Variable Modelling and Item Response Theory Analyses, Journal of Statistical Software, 17 (5), 1-25.
3. Wright B D (1977), Solving measurement problems with the Rasch model, Journal of Educational Measurement 14 97-116

IMPACT OF NUMBER OF ITEMS ON TEST RESULTS

**M.J. Ermamatov¹, A.R. Sattiev¹, D.M. Alimov¹,
A.A. Baratov², A.A. Sulaymonov¹**

*¹State Test Center under the Cabinet of Ministers of
Republic Uzbekistan, Tashkent 100084, Bogishamol st. 12.*

*²Scientific-study Practical Center under the State Test Center under
the Cabinet of Ministers of Republic Uzbekistan, Tashkent 100084, Bogishamol st. 12.*

Abstract. This article shows how the number of test items affects the test results based on the analysis of the results of a test in mathematics and mother tongue in admission to the 5th grade of specialized schools.

Keywords: number of items, descriptive statistics, Wright map, test information function

OLIV TA'LIM MUASSASALARI BAKALARIAT TA'LIM YO'NALISHI QABULIDA QO'LLANADIGAN IMTIYOZLAR

Ma'lumotnoma

(2022-2023-o'quv yili uchun)

J.T. Odilov

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Davlat test markazi, 100084, Toshkent sh., Bog'ishamol k., 12

KIRISH

Ma'lumotnomada oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kirish uchun beriladigan imtiyozlar va ularning qo'llanishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, ma'lumotnoma oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kirish istagini bildirgan abituriyentlarga mo'ljallangan.

Abituriyentlarga oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kirish uchun imtiyozlar hukumatning tegishli qarorlari (*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari hamda*

Vazirlar Mahkamasining qarorlari) asosida berilishi mumkin.

Davlat test markazi ijrochi tashkilot bo'lib, amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida abituriyentlarga imtiyozlarni qo'llaydi. Qonunchilikda ko'rsatilmagan holatlarda esa hech kimga hech qanday qo'shimcha imtiyoz berish vakolatiga ega emas.

Keltirilgan ma'lumotlar 2022-2023-o'quv yili uchun o'rinli bo'lib, hukumatning tegishli qarorlariga o'zgartirishlar kiritilgan yoki o'z kuchini yo'qotgan taqdirda imtiyozlarning qo'llanishi o'zgarishi mumkin.

I. IMTIHONSIZ QO'SHIMCHA DAVLAT GRANTI ASOSIDA TALABALIKKA TAVSIYA ETISH UCHUN ASOS BO'LUVCHI IMTIYOZLAR

Harbiy qism qo'mondonligi va O'zbekiston yoshlar ittifoqining tavsiyanomasiga ega abituriyentlar

Huquqiy asosi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida" 2017-yil 17-noyabrdagi **PQ-3394-son** qarori.

2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi **393-son** qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni

o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida” nizom.

Qo‘llanishi: O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy qism qo‘mondonligi (rahbariyati) va O‘zbekiston yoshlar ittifoqining tavsiyanomasiga asosan har bir harbiy qismdan bir nafardan yuqori natijalarga erishgan yosh harbiy xizmatchi qo‘shimcha davlat granti asosida oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilinadi.

Harbiy xizmatchilarning farzandlari

Huquqiy asosi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilari va ularning oila a‘zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 14-maydagi **PQ-3726-son** qarori.

2. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-iyundagi **462-son** qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiylari va uning tarkibiga kiruvchi vazirlik hamda idoralarning xodimlari farzandlarining kvota asosida respublika oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirishi uchun tavsiyanomalar berish tartibi to‘g‘risida” nizom.

Qo‘llanishi: Harbiy xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan hamda harbiy xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida yaradorlik, kontuziya, shikastlanish yoki kasalliklar oqibatida

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga ro‘yxatdan o‘tishda o‘zlari tanlagan birinchi oliy ta‘lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

Mas‘ul vakolatli davlat organi: O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi.

nogiron bo‘lib qolgan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirliklar va idoralarning harbiy xizmatchilari va Milliy gvardiya xodimlarining farzandlari vazirliklar yoki idoralarning tegishli tavsiyanomalari asosida oliy ta‘lim muassasalariga kirishda belgilangan qabul ko‘rsatkichlaridan tashqari tanlovsiz davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinadi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga ro‘yxatdan o‘tishda o‘zlari tanlagan birinchi oliy ta‘lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

Mas‘ul vakolatli davlat organi: Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat xavfsizlik xizmati, Elektron texnologiyalarni rivojlantirish markazi, Milliy gvardiya.

Ichki ishlar organlari xodimlari farzandlari

Huquqiy asosi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a‘zolarini ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 26-fevraldagi **PQ-4212-son** qarori.

2. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-maydagi **375-son** qarori bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlari xodimlari farzandlarining davlat oliy ta‘lim muassasalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiyasi va Davlat bojxona qo‘mitasining oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirishi uchun tavsiyanoma (taqdimnoma) berish tartibi to‘g‘risida” nizom.

Qo‘llanishi: Terrorizm va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda

jamoat xavfsizligini ta‘minlash chog‘ida halok bo‘lgan yoki olgan jarohati tufayli nogiron bo‘lib qolgan ichki ishlar organlari xodimlarining farzandlariga oliy ta‘lim muassasalariga kirishda tanlovsiz, belgilangan qabul parametrlaridan tashqari davlat granti asosida o‘qishga kirish imtiyozlari beriladi (*tavsiyanoma asosida*).

Tavsiyanoma **kunduzgi** yoki **sirtqi** ta‘lim shakliga bir marta kirish uchun uch yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga beriladi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga ro‘yxatdan o‘tishda o‘zlari tanlagan birinchi oliy ta‘lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

Mas‘ul vakolatli davlat organi: Ichki ishlar vazirligi.

Bojxona organlari xodimlarining farzandlari

Huquqiy asosi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bojxona ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 27-apreldagi **PF-122-son** Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi **PQ-3665-son** qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlarida xizmatni o‘tash to‘g‘risida” nizom.

Qo‘llanishi: Xizmat majburiyatini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan, shuningdek, xizmat majburiyatini bajarishda olgan jarohati tufayli nogiron bo‘lib qolgan bojxona organlari xodimlarining farzandlari Davlat bojxona qo‘mitasi raisining tavsiyanomasi asosida belgilangan qabul parametrlaridan tashqari davlat granti asosida O‘zbekiston Respublikasi davlat oliy ta‘lim muassasalari bakalavriatining **kunduzgi** ta‘lim shakliga tanlovsiz qabul qilinadi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga ro'yxatdan o'tishda o'zlari tanlagan birinchi oliy ta'lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

Shuningdek, DBQ raisi xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida halok bo'lgan bojxona organlari xodimlarining to'lov-kontrakt asosida ta'lim olayotgan farzandlariga – qolgan o'quv davri to'lov-kontrakt mablag'lari miqdorining to'liq hajmini, xizmat majburiyatlarini bajarish

chog'ida olgan jarohati tufayli nogiron bo'lib qolgan bojxona organlari xodimlarining to'lov-kontrakt asosida ta'lim olayotgan farzandlariga – to'lov-kontrakt mablag'lari miqdorining ellik foizi miqdorini Davlat bojxona qo'mitasining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan to'lab berish huquqiga ega.

Mas'ul vakolatli davlat organi:
Davlat bojxona qo'mitasi.

Respublika va xalqaro sport musobaqalari g'oliblari

Huquqiy asosi: Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi **226-son** qarori bilan tasdiqlangan "Xalqaro va respublika tanlovlari, musobaqalari g'oliblari bo'lgan akademik litseylar, professional ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari o'quvchilarini taqdirlash tartibi to'g'risida" nizom.

Qo'llanishi: Kattalar va yoshlar o'rtasida Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari dasturlariga kiritilgan sportning olimpiya va paralimpiya turlari bo'yicha Olimpiya va Paralimpiya, Osiyo va Paraosiyo o'yinlari, jahon va Osiyo chempionatlarida oxirgi to'rt yilda hamda respublika chempionatlarida oxirgi bir yilda g'olib va sovrindor (1-3 o'rin) bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarining bitiruvchilari oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun hujjatlar qabul qilish boshlanguniga qadar oliy ta'lim muassasalarining jismoniy

tarbiya va sport sohasidagi ta'lim yo'nalishlariga qo'shimcha davlat granti asosida kunduzgi, sirtqi, kechki ta'lim shakllariga imtihon sinovlarisiz qabul qilinadilar.

Respublika (1-o'rin) va xalqaro tanlovlar va sport musobaqalarining (*Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari dasturlariga kiritilgan sportning olimpiya va paralimpiya turlari bo'yicha Olimpiya va Paralimpiya, Osiyo va Paraosiyo o'yinlari, jahon va Osiyo chempionatlarida oxirgi to'rt yilda hamda respublika chempionatlarida oxirgi bir yilda g'olib va sovrindor (1-3 o'rin) bo'lgan*) jamoa turlari g'oliblari o'z komandalari tarkibidan - akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablari bitiruvchilaridan oliy ta'lim muassasasiga test sinovlarisiz va qo'shimcha imtihonsiz qabul qilish uchun uch nomzodni belgilaydilar.

Mas'ul vakolatli davlat organi:
Sportni rivojlantirish vazirligi.

Respublika va xalqaro shaxmat va shashka turnirlari g'oliblari

Huquqiy asosi: Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi **226-son** qarori bilan tasdiqlangan “Xalqaro va respublika tanlovlari, musobaqalari g'oliblari bo'lgan akademik litseylar, professional ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari o'quvchilarini taqdirlash tartibi to'g'risida” nizom.

Qo'llanishi: Respublika (1-o'rin) va xalqaro (1-5-o'rinlar) shaxmat va shashka turnirlarida g'olib chiqqan akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablari bitiruvchilari

pedagogik kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasasiga test sinovlarisiz va qo'shimcha imtihonsiz qabul qilinadilar.

Bunda ularni oliy ta'lim muassasasiga imtiyozli qabul qilish ta'lim muassasasi ixtisosliklari bilan tanlovlar ixtisosliklari, sport turlarining soha bo'yicha mos kelishiga qat'iy rioya qilingan holda amalga oshiriladi.

Mas'ul vakolatli davlat organi: Sportni rivojlantirish vazirligi.

Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti laureatlari

Huquqiy asosi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'xis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida” 1999-yil 10-iyundagi **PF-2326-son** Farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi **393-son** qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida” nizom.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021-2022-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida” 2021-yil 22-iyundagi **PQ-5157-son** qarori.

risida” 2021-yil 22-iyundagi **PQ-5157-son** qarori.

Qo'llanishi: Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti laureatlari bo'lgan o'quvchilari oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga, bakalavriat talabalari esa magistraturaga tegishli yo'nalish va ixtisoslik bo'yicha sinovlarsiz qo'shimcha davlat granti asosida o'qishga qabul qilinadi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga ro'yxatdan o'tishda o'zlari tanlagan birinchi oliy ta'lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

Mas'ul vakolatli davlat organi: Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi.

“Nihol” mukofoti sohiblari

Huquqiy asosi:

1. Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 9-avgustdagi **169-son** qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yosh iste’dodlar uchun “Nihol” mukofoti to‘g‘risida” nizom.

2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi **393-son** qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida” nizom.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021-2022-o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida” 2021-yil 22-iyundagi **PQ-5157-son** qarori.

Qo‘llanishi:

“Nihol” mukofoti sovrindorlari Madaniyat vazirligining taqdimnomalariga muvofiq Davlat komissiyasining qarori bilan madaniyat, san’at yo‘nalishidagi oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining mos ta’lim yo‘nalishlariga tanlovdan tashqari kirish imtihonlarisiz qo‘shimcha davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinadilar (*ansambl, jamoa sifatida ishtirok etganlar bundan mustasno*).

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga ro‘yxatdan o‘tishda o‘zlari tanlagan birinchi oliy ta’lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

Mas’ul vakolatli davlat organi:

Madaniyat vazirligi.

Madaniyat vazirligining respublika ko‘rik-tanlovlari g‘oliblari

Huquqiy asosi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2018-yil 28-noyabrdagi **PQ-4038-son** qarori.

Qo‘llanishi: Madaniyat vazirligining “Xalq cholg‘ulari ijrochilari”, Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Milliy raqs ijrochilari” va Yunus Rajabiy nomidagi “Yosh maqom ijrochilari” respublika ko‘rik-tanlovlari g‘oliblarining bir nafardan yakka ijrochilari tegishli yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta’lim muassasasining bakalavriat bosqichiga

qabul kvotasiga qo‘shimcha davlat granti asosida qabul qilinadi.

Ushbu respublika ko‘rik-tanlovlari:

– Xalq cholg‘ulari ijrochilari” ko‘rik-tanlovi ikki yilda bir marta, dastlab 2019-yilning iyun oyida;

– Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Milliy raqs ijrochilari” ko‘rik-tanlovi ikki yilda bir marta, dastlab 2019-yilning oktabr oyida;

– Yunus Rajabiy nomidagi “Yosh maqom ijrochilari” ko‘rik-tanlovi ikki yilda bir marta, dastlab 2020-yilning aprel oyida o‘tkaziladi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga ro'yxatdan o'tishda o'zlari tanlagan birinchi oliy ta'lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

Mas'ul vakolatli davlat organi:
Madaniyat vazirligi.

“Mard o'g'lon” davlat mukofoti sohiblari

Huquqiy asosi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mard o'g'lon” davlat mukofotini ta'sis etish to'g'risida” 2017- yil 21-noyabrdagi **PQ-3402-son** qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021-2022-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida” 2021-yil 22-iyundagi **PQ-5157-son** qarori.

Qo'llanishi: “Mard o'g'lon” davlat mukofoti sohiblari bo'lgan umumta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichiga, oliy o'quv yurtlari talabalari yoki bakalavr darajasiga ega yoshlar esa

magistratura bosqichiga tegishli yo'nalish bo'yicha kirish imtihonlarisiz davlat grantlari asosida qabul qilinadilar.

Bunda “Mard o'g'lon” davlat mukofoti sohiblari bo'lgan umumta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyundagi **PQ-5157-son** qaroriga asosan oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichiga qo'shimcha davlat grantlari asosida qabul qilinadi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga ro'yxatdan o'tishda o'zlari tanlagan birinchi oliy ta'lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

Mas'ul vakolatli davlat organi:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi.

“Tarbiyachi” respublika tanlovi g'oliblari

Huquqiy asosi:

1. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi **393-son** qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida” nizom.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021-2022-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim

muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida” 2021-yil 22-iyundagi **PQ-5157-son** qarori.

Qo'llanishi: Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan har yili o'tkaziladigan “Tarbiyachi” respublika tanlovi g'oliblari Davlat komissiyasining qarori bilan tegishli oliy ta'lim muassasalarining

mos ta'lim yo'nalishlariga tanlovdan tashqari kirish imtihonlari (*test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon*)siz qo'shimcha davlat granti asosida o'qishga qabul qilinadi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat

ta'lim yo'nalishlariga ro'yxatdan o'tishda o'zlari tanlagan birinchi oliy ta'lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

Mas'ul vakolatli davlat organi: Maktabgacha ta'lim vazirligi.

“Hamshira” respublika tanlovi g'oliblari

Huquqiy asosi:

1. Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 20-iyundagi **393-son** qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida” nizom.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021-2022-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida” 2021-yil 22-iyundagi **PQ-5157-son** qarori.

Qo'llanishi: Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan har yili o'tka-

ziladigan “Hamshira” respublika tanlovi g'oliblari Davlat komissiyasining qarori bilan tegishli oliy ta'lim muassasalarining mos ta'lim yo'nalishlariga tanlovdan tashqari kirish imtihonlari (*test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon*)siz qo'shimcha davlat granti asosida o'qishga qabul qilinadi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga ro'yxatdan o'tishda o'zlari tanlagan birinchi oliy ta'lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

Mas'ul vakolatli davlat organi: Sog'liqni saqlash vazirligi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqining faol a'zolari

Huquqiy asosi:

1. Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston yoshlar ittifoqining faol a'zolariga oliy ta'lim muassasalariga kirishda imtiyozlar berish to'g'risida” 2017-yil 14-noyabrdagi **914-son** qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021-2022-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida” 2021-yil 22-iyundagi **PQ-5157-son** qarori.

risida” 2021-yil 22-iyundagi **PQ-5157-son** qarori.

Qo'llanishi: O'zbekiston yoshlar ittifoqining faol a'zolariga, ya'ni O'zbekiston yoshlar ittifoqi tizimidagi sardorlarga, boshlang'ich tashkilotlardagi yo'nalish yetakchilariga, ikki yillik mehnat stajiga ega bo'lgan fidoyi yoshlarga oliy ta'lim muassasalariga imtiyozli qabul qilish bo'yicha tavsiyanomalar beriladi.

Bunda respublika komissiyasi tanlov natijalariga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining bir nafardan (jami 14 nafar) eng munosib yoshlari tanlab olinadi.

Tavsiyanomaga ega O'zbekiston yoshlar ittifoqining faol a'zolari Davlat komissiyasining qarori bilan doimiy yashash joyidagi oliy ta'lim muassasalarining pedagogika ta'lim yo'nalishlariga tanlovdan tashqari kirish imtihonlari (*test sinovlari, kasbiy (ijodiy)*)

imtihon, yozma imtihon)siz qo'shimcha davlat granti asosida o'qishga qabul qilinadi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga ro'yxatdan o'tishda o'zlari tanlagan birinchi oliy ta'lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

Mas'ul vakolatli davlat organi:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi.

Xalqaro olimpiadalar g'oliblari

Huquqiy asosi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 3-maydagi **PQ-4306-son** qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021-2022-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida" 2021-yil 22-iyundagi **PQ-5157-son** qarori.

Qo'llanishi: Xalqaro olimpiadalarda 1-3-o'rinni egallagan abituriyentlar oliy ta'lim muassasalariga test sinovsiz va imtihonlarsiz **qo'shimcha davlat granti asosida** qabul qilinadi. Bular:

- Xalqaro matematika olimpiadasi - International Mathematical Olympiad (IMO);

- Xalqaro fizika olimpiadasi – International Physics Olympiad (IPhO);

- Xalqaro kimyo olimpiadasi – International Chemistry Olympiad (ICHO);

- Xalqaro biologiya olimpiadasi – International Biology Olympiad (IBO);

- Xalqaro informatika olimpiadasi – International Olympiad in Informatics (IOI).

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga ro'yxatdan o'tishda o'zlari tanlagan birinchi oliy ta'lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

Mas'ul vakolatli davlat organi:
Xalq ta'limi vazirligi.

Prezident maktablari bitiruvchilari

Huquqiy asosi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 19-iyuldagi **PQ-5188-son** qarori.

Qo‘llanishi: Prezident maktablari bitiruvchilari davlat oliy ta‘lim tashkilotlariga umumiy belgilangan davlat granti asosidagi qabul ko‘r-

satkichlariga nisbatan qo‘shimcha davlat granti asosida test sinovlarisiz va qo‘shimcha imtihonlarsiz o‘qishga qabul qilinadi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga ro‘yxatdan o‘tishda o‘zlari tanlagan birinchi oliy ta‘lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

Mas‘ul vakolatli davlat organi: Prezident ta‘lim muassasalari agentligi.

II. IMTIHONSIZ BAZAVIY TO‘LOV-KONTRAKT ASOSIDA TALABALIKKA TAVSIYA ETISH UCHUN ASOS BO‘LUVCHI IMTIYOZLAR

Prezident ta‘lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablarning bitiruvchilari

Huquqiy asosi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 19-iyuldagi **PQ-5188-son** qarori.

Qo‘llanishi: Prezident ta‘lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablarning bitiruvchilari ixtisoslik yo‘nalishidan kelib chiqib davlat oliy ta‘lim tashkilotlarining **kimyo, biologiya, fizika** va **axborot texnologiyalari** sohalari uchun kadrlar

tayyorlaydigan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga umumiy belgilangan qabul parametrlaridan tashqari bazaviy to‘lov-kontrakt asosida test sinovlarisiz va qo‘shimcha imtihonlarsiz o‘qishga qabul qilinadi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga ro‘yxatdan o‘tishda o‘zlari tanlagan birinchi oliy ta‘lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

Mas‘ul vakolatli davlat organi: Prezident ta‘lim muassasalari agentligi.

Prezident ta‘lim muassasalari agentligi tizimidagi ijod maktablarining bitiruvchilari

Huquqiy asosi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoli-

yatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”

2021-yil 19-iyuldagi **PQ-5188-son** qarori.

Qo‘llanishi: Prezident ta‘lim muassasalari agentligi tizimidagi ijod maktablarining bitiruvchilari ixtisoslik yo‘nalishidan kelib chiqib davlat oliy ta‘lim tashkilotlarining **tilshunoslik, adabiyot, pedagogika, tarjimonlik, jurnalistika** sohalari uchun kadrlar tayyorlaydigan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga umumiy belgilangan qabul parametrlaridan tashqari bazaviy

to‘lov-kontrakt asosida test sinovlarisiz va qo‘shimcha imtihonlarsiz o‘qishga qabul qilinadi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga ro‘yxatdan o‘tishda o‘zlari tanlagan birinchi oliy ta‘lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

Mas‘ul vakolatli davlat organi: Prezident ta‘lim muassasalari agentligi.

“Zakovat” intellektual o‘yini g‘oliblari

Huquqiy asosi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zakovat” intellektual o‘yinini aholi o‘rtasida ommaviy-ma‘rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o‘yinlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 20-yanvardagi **PQ-96-son** qarori.

Qo‘llanishi: “Zakovat” intellektual o‘yinini aholi o‘rtasida ommaviy-ma‘rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o‘yinlarni rivojlantirish bo‘yicha respublika tashkiliy qo‘mitasi tavsiyasiga ko‘ra intellektual o‘yinlarning respublika bosqichida g‘olib va sovrindor (1–3-o‘rinlar) bo‘lgan umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, shu jumladan Prezident ta‘lim muassasalari o‘quvchilari belgilangan tartibda – o‘rta maxsus va professional ta‘lim muassasalari hamda

oliy ta‘lim muassasalariga, o‘rta maxsus va professional ta‘lim muassasalari o‘quvchilari – oliy ta‘lim muassasalarining tegishli ta‘lim yo‘nalishlariga, oliy ta‘lim muassasalari talabalari – ta‘limning keyingi bosqichiga bazaviy to‘lov kontrakt asosida imtihon sinovlarisiz qabul qilinadi.

Mazkur imtiyozga ega abituriyentlar oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga ro‘yxatdan o‘tishda o‘zlari tanlagan birinchi oliy ta‘lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi.

Mas‘ul vakolatli davlat organi: Xalq ta‘limi vazirligi, Prezident ta‘lim muassasalari agentligi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi.

Profilaktika inspektorlari

Huquqiy asosi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining

yuridik yo‘nalishdagi bilimlarini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida" 2021-yil 30-noyabrdagi **PQ-23-son** qarori.

Qo'llanishi: 2022-2023-o'quv yilidan boshlab ichki ishlar organlarida uch yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan, kasbiga fidoyi, tashabbuskor profilaktika (katta) inspektorlari Jamoat xavfsizligi universiteti, Toshkent davlat yuridik universiteti hamda yurisprudensiya sohasida bakalavriat ta'lim yo'nalishi mavjud bo'lgan boshqa davlat oliy ta'lim muassasalariga (*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi hamda Davlat bojxona qo'mitasining Bojxona instituti bundan mustasno*) kirish imtihonlarisiz sirtqi ta'lim shakliga o'qishga qabul qilinadi.

Bunda tavsiyanoma berilgan profilaktika (katta) inspektorlari ro'yxati Ichki ishlar vaziri tomonidan har yili iyun

oyida test imtihonlari natijalari va komissiya xulosasi bilan birgalikda, tavsiya etilayotgan oliy ta'lim muassasalari kesimida O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasiga taqdim etiladi.

O'qishga qabul qilish Davlat komissiyasining qarori bilan to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi hamda kontrakt mablag'lari respublika budjeti mablag'lari hisobidan Ichki ishlar vazirligi orqali to'lab beriladi.

Tavsiyanomaga ega profilaktika (katta) inspektorlari oliy ta'lim muassasalarining sirtqi ta'lim shakliga qabul parametrlaridan tashqari o'qishga qabul qilinadi.

Mas'ul vakolatli davlat organi:
Ichki ishlar vazirligi.

III. TEGISHLI FAN BO'YICHA IMTIHONDAN OZOD ETILIB, MA'LUM MIQDORDA BALL BERISHGA ASOS BO'LUVCHI IMTIYOZLAR

Respublika fan olimpiadalari g'oliblari

Huquqiy asosi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 3-maydagi **PQ-4306-son** qarori.

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi **562-son** qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari, akademik litsey va kasb-hunar maktablari o'quvchilari o'rtasida

fan olimpiadalarini tashkil etish, o'tkazish hamda xalqaro olimpiadalar ishtirokchilarini saralash va g'oliblarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida" nizom.

Qo'llanishi: Asosiy olimpiadalarning to'rtinchi (*respublika*) bosqichida 1-, 2-, 3-o'rinlarni egallagan o'quvchilarga ixtisoslik fani bo'yicha davlat oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida maksimal ball olish huquqini beruvchi va uch yil muddat

davomida amal qiluvchi elektron sertifikatlar beriladi.

Informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha mazkur sertifikatni olgan o'quvchilarga ixtisoslik fan sifatida matematika fanidan davlat oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida maksimal ball olish huquqi beriladi.

Chet tili sertifikatiga ega abituriyentlar

Huquqiy asosi: Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishda milliy hamda xalqaro baholash tizimlari sertifikatlarini tatbiq qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 13- maydagi **395-son** qarori.

Qo'llanishi: Test sinovlari (kasbiy (ijodiy) imtihon) majmuasiga chet tili fani kiritilgan barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga hujjat topshirgan va milliy yoki xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha tilni bilish darajalari B2 va undan yuqori bo'lgan sertifikatga ega abituriyentlarga ushbu fandan imtihonlarsiz belgilangan maksimal ball beriladi.

Bunda Toshkent davlat yuridik universiteti uchun IELTS sertifikatiga ega abituriyentlarda **writing** moduli **5,5 ball** yoki undan yuqori bo'lishi lozim.

Imtiyoz amal qiluvchi sertifikatlar:

- ingliz tili – milliy sertifikat, IELTS, TOEFL IBT 72, Cambridge

Musiqqa, raqs, teatr, folklor, tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlari bo'yicha respublika va xalqaro tanlovlar g'oliblari

Huquqiy asosi:

1. Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi **226-son** qarori bilan

Tegishli fandan beriladigan maksimal ball fanlar majmuasida mazkur fan mavjud bo'lgan abituriyent tanlagan barcha ta'lim yo'nalishlari uchun o'rinli hisoblanadi.

Mas'ul vakolatli davlat organi: Xalq ta'limi vazirligi.

Assessment English FCE, Cambridge Assessment English Linguaskill;

- yapon tili – milliy sertifikat, JLPT № 2;

- nemis tili – milliy sertifikat, Goethe-Zertifikat, DSD, Test DAF;

- fransuz tili – milliy sertifikat, DELF, TCF4;

- boshqa tillar – milliy sertifikat yoki xalqaro imtihon tizimlari.

Tegishli fandan beriladigan maksimal ball fanlar majmuasida mazkur fan mavjud bo'lgan abituriyent tanlagan barcha ta'lim yo'nalishlari uchun o'rinli hisoblanadi.

Mas'ul vakolatli davlat organi: Davlat test markazi, Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi.

Izoh: Xalqaro sertifikatlar xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda tekshiriladi.

tasdiqlangan "Xalqaro va respublika olimpiadalari, tanlovlari, musobaqalari g'oliblari bo'lgan akademik litseylar,

professional ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari o'quvchilarini taqdirlash tartibi to'g'risida" nizom.

2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi **393-son** qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida" nizom.

Qo'llanishi: Madaniyat vazirligining musiqa, raqs, teatr, folklor, shuningdek Badiiy akademiyaning tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlari bo'yicha respublika tanlovi (1-o'rin) hamda mazkur yo'nalishlardagi xalqaro tanlovlarning (1-3-o'rinlar) g'oliblariga tegishli oliy ta'lim muassasalarining kasbiy (ijodiy) imti-

honlarida soha bo'yicha eng yuqori ball belgilangan fandan maksimal ball olish imtiyozi beriladi.

Agar kasbiy (ijodiy) imtihonlarda eng yuqori ball bir nechta fanlardan belgilangan bo'lsa, abituriyentga imtiyozli maksimal ball olish uchun fanlardan birini tanlash huquqi beriladi.

Tegishli fandan beriladigan maksimal ball fanlar majmuasida mazkur fan mavjud bo'lgan abituriyent tanlagan barcha ta'lim yo'nalishlari uchun o'rinli hisoblanadi.

Mas'ul vakolatli davlat organi: Madaniyat vazirligi, O'zbekiston badiiy akademiyasi.

"Bolalar sport o'yinlari"ning respublika bosqichi g'oliblari

Huquqiy asosi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 24-yanvardagi **PF-5924-son** Farmoni.

Qo'llanishi: "Bolalar sport o'yinlari"ning jamoaviy o'yin turlari bo'yicha respublika bosqichi g'oliblariga (1-o'rin) oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida soha bo'yicha mutaxassislik

fanidan maksimal ball olish huquqini beruvchi, uch yil muddat davomida amal qiluvchi sertifikat beriladi.

Tegishli fandan beriladigan maksimal ball fanlar majmuasida mazkur fan mavjud bo'lgan abituriyent tanlagan barcha ta'lim yo'nalishlari uchun o'rinli hisoblanadi.

Mas'ul vakolatli davlat organi: Sportni rivojlantirish vazirligi.

Umumta'lim fanlaridan milliy sertifikatga ega abituriyentlar

Huquqiy asosi: Vazirlar Mahkamasining "Umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test

tizimini joriy etish to'g'risida" 2020-yil 12-oktabrdagi **646-son** qarori.

Qo'llanishi: Umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholash test sinovlari

natijasi bo'yicha eng yuqori ballning kamida 60 foizini to'plagan shaxslarga 3 yil muddat davomida amal qiluvchi davlat namunasidagi sertifikat beriladi.

Umumta'lim fanini (*chet tili bundan mustasno*) bilish darajasi to'g'risida davlat namunasidagi sertifikatga ega bo'lgan abituriyentlarga sertifikatdagi o'zlashtirish foiziga mos ravishda oliy ta'lim muassasasi bakalavriatiga o'qishga qabul qilish bo'yicha test sinovlarida ushbu fandan belgilangan maksimal ballga nisbatan tabaqalashtirilgan (*proporsional*) ball beriladi.

Tegishli fandan beriladigan tabaqalashtirilgan ball fanlar majmuasida maz-

kur fan mavjud bo'lgan abituriyent tanlagan barcha ta'lim yo'nalishlari uchun o'rinli hisoblanadi.

Hozirga qadar umumta'lim fanlaridan sertifikatlash tizimi ona tili va adabiyot (*o'zbek tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti, qoraqalpoq tili va adabiyoti*), matematika, kimyo va biologiya fanlari bo'yicha joriy etilgan bo'lib, 2022-2024-yillarda fizika, geografiya va tarix fanlaridan joriy etish belgilangan.

Mas'ul vakolatli davlat organi:
Davlat test markazi.

IV. TO'PLANGAN BALLGA NISBATAN QO'SHIMCHA BALL BERISH UCHUN ASOS BO'LUVCHI IMTIYOZLAR

“Temurbeklar maktabi” bitiruvchilari

Huquqiy asosi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2019-yil 28-iyundagi **PQ-4375-son** qarori.

Qo'llanishi: “Temurbeklar maktabi” bitiruvchilariga O'zbekiston Respublikasi oliy harbiy va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda Davlat test markazi tomonidan o'tkaziladigan test sinovlarida o'zlari to'plagan bal-

larning 30 foizi miqdoridagi, respublikaning boshqa davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda esa o'zlari to'plagan ballarning 15 foizi miqdoridagi qo'shimcha ballar ko'rinishida imtiyoz beriladi.

To'plangan ballga nisbatan qo'shimcha ballar ko'rinishida imtiyoz abituriyent tanlagan barcha ta'lim yo'nalishlari uchun o'rinli hisoblanadi.

Mas'ul vakolatli davlat organi:
Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi.

Harbiy musiqa akademik litseyi bitiruvchilari

Huquqiy asosi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy musiqa akademik litseyini tashkil etish to‘g‘risida” 2022-yil 16-fevraldagi **PQ-129-son** qarori.

Qo‘llanishi: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy musiqa akademik litseyi bitiruvchilariga O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirishda Davlat test markazi tomonidan o‘tkaziladigan test sinovlarida o‘zlari to‘plagan ballarning 30 foizi miqdoridagi, respub-

likaning boshqa davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirishda esa o‘zlari to‘plagan ballarning 15 foizi (*shu jumladan, ijodiy imtihonlar bo‘yicha*) miqdoridagi qo‘shimcha ballar ko‘rinishida imtiyoz beriladi.

To‘plangan ballga nisbatan qo‘shimcha ballar ko‘rinishida imtiyoz abituriyent tanlagan barcha ta‘lim yo‘nalishlari uchun o‘rinli hisoblanadi.

Mas‘ul vakolatli davlat organi: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi.

V. QO‘SHIMCHA KVOTA DOIRASIDA TANLOVDA ISHTIROK ETISH UCHUN ASOS BO‘LUVCHI IMTIYOZLAR

Olis cho‘l hududlari aholisi

Huquqiy asosi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Navoiy viloyatining olis cho‘l tumanlarida aholining turmush darajasini yanada oshirishga doir qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida” 2017-yil 25-apreldagi **PQ-2925-son** qarori.

Qo‘llanishi: Navoiy, Buxoro, Samarqand viloyatlaridagi oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishda test sinovlari natijalari bo‘yicha 68 va undan yuqori ballga ega bo‘lgan Navoiy viloyatining olis cho‘l tumanlari (*Konimex, Tomdi, Uchquduq*) da kamida uch yildan buyon istiqomat qilayotgan abituriyentlar keyinchalik mutaxassisligi bo‘yicha ushbu hududlardagi budjet

tashkilotlarida tegishli viloyat hokimligi va oliy ta‘lim muassasasi o‘rtasida tuziladigan shartnoma asosida kamida 4 yil ishlab berish sharti bilan qo‘shimcha davlat granti asosida imtiyozli o‘qishga qabul qilinadi.

Bunda abituriyent oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga ro‘yxatdan o‘tishda tanlagan birinchi oliy ta‘lim muassasasiga (*Navoiy, Buxoro, Samarqand viloyatlaridagi oliy ta‘lim muassasalaridan biri bo‘lsa*) talabalikka tavsiya etiladi.

Mas‘ul vakolatli davlat organi: Navoiy viloyati hokimligi.

Bobotog‘ hududidagi yoshlar

Huquqiy asosi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021- 2023-yillarda Surxondaryo viloyati Uzun tumani Bobotog‘ hududini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-fevraldagi **PQ-4995-son** qarori.

Qo‘llanishi: 2021-2022-o‘quv yilidan kelgusi uch o‘quv yili davomida Uzun tumani Bobotog‘ hududidagi yoshlar uchun davlat grantlari bo‘yicha kvotalarni oshirish limitlari doirasida Surxondaryo viloyatidagi pedagogika va tibbiyot yo‘nalishlaridagi oliy ta‘lim muassasalariga qo‘shimcha maxsus kvotalar ajratiladi.

Mazkur kvotalarning taqsimoti maqsadli kvota sifatida tegishli vazirliklar tomonidan amalga oshiriladi va Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Maxsus kvota bo‘yicha o‘qishga qabul qilingan yoshlar oliy ma‘lumotga ega bo‘lganidan so‘ng, o‘z hududida kamida 5 yil davomida mehnat qilishi zarur.

Mas‘ul vakolatli davlat organi: Vazirlar Mahkamasi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Xalq ta‘limi vazirligi, Davlat test markazi, Surxondaryo viloyati hokimligi.

Harbiy xizmatchilarning farzandlari

Huquqiy asosi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilari va ularning oila a‘zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 14-maydagi **PQ-3726-son** qarori.

2. Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 22-iyundagi **462-son** qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiylari va uning tarkibiga kiruvchi vazirlik hamda idoralarning xodimlari farzandlarining kvota asosida respublika oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirishi uchun tavsiyanomalar berish tartibi to‘g‘risida” nizom.

3. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi **393-son** qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida” nizom.

Qo‘llanishi: O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirliklar va idoralarda harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarning farzandlari oliy ta‘lim muassasalariga kirishda ajratilgan qo‘shimcha **besh foiz** va Milliy gvardiya xodimlari farzandlari **ikki foiz** qabul kvotalari doirasida tanlovda ishtirok etadi.

Harbiy xizmatchilarning farzandlari uchun qo‘shimcha kvotalar vazirlik va idoralar kesimida taqsimlanadi va kvota doirasida eng yuqori ball to‘plagan

abituriyentlar o'zlari tanlagan birinchi oliy ta'lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi. Bunda vazirlik va idoralar bo'yicha o'tish ballari turlicha bo'lishi mumkin.

Mas'ul vakolatli davlat organi:
Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi,

Ichki ishlar organlari xodimlari farzandlari

Huquqiy asosi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 26-fevraldagi **PQ-4212-son** qarori.

2. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-maydagi **375-son** qarori bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlari xodimlari farzandlarining davlat oliy ta'lim muassasalari hamda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiyasi va Davlat bojxona qo'mitasining oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi uchun tavsiyanoma (taqdimnoma) berish tartibi to'g'risida" nizom.

Qo'llanishi: Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashda munosib hissa qo'shgan, xizmat yoki ilmiy faoliyatda yuqori natijalarga

Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat xavfsizlik xizmati, Elektron texnologiyalarni rivojlantirish markazi, Milliy gvardiya.

erishgan ichki ishlar organlarining amaldagi xodimlari farzandlariga oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga o'qishga kirish uchun qo'shimcha **besh foiz** davlat granti asosida qabul kvotalari ajratiladi va ular mazkur kvotalar doirasida tanlovda ishtirok etadi (*tavsiyanoma asosida*).

Tavsiyanoma **kunduzgi** yoki **sirtqi** ta'lim shakliga bir marta kirish uchun uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga beriladi.

Ichki ishlar organlari xodimlari farzandlari uchun qo'shimcha kvotalar oliy ta'lim muassasalari kesimida taqsimlanadi va abituriyent o'zi tanlagan barcha oliy ta'lim muassasalarida (*OTMga Ichki ishlar organlari xodimlari farzandlari uchun qo'shimcha kvota ajratilgan bo'lsa*) imtiyoz doirasida tanlovda ishtirok etadi.

Mas'ul vakolatli davlat organi:
Ichki ishlar vazirligi.

Bojxona organlari xodimlarining farzandlari

Huquqiy asosi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bojxona ma'muriyatchiligini

yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"

2022-yil 27-apreldagi **PF-122-son** Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi **PQ-3665-son** qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlarida xizmatni o‘tash to‘g‘risida” nizom.

Qo‘llanishi: Bojxona organlarining xizmatdagi ofitserlari va serjantlar tarkibi xodimlarining farzandlariga o‘qishga kirish uchun respublika davlat oliy ta‘lim muassasalari bakalavriatiga ajratilgan umumiy davlat granti asosidagi qabul parametrlariga nisbatan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlarining **kunduzgi** ta‘lim shakliga alohida **ikki foizli** davlat granti asosidagi kvotalar ajratiladi va ular mazkur kvotalar doirasida tanlovda ishtirok etadi.

Mazkur imtiyozdan foydalanish huquqi bojxona xizmatiga salmoqli hissa

qo‘shgan, ish jarayonida ma‘lum bir natijalarga erishgan, bojxona organlarida xizmat qilayotgan xodimlarning tegishli tavsiyanomalarga ega bo‘lgan farzandlariga beriladi.

Xodimlarning farzandlari uchun ajratilgan ikki foizli qabul parametrlari doirasida oliy ta‘lim muassasalariga qabul qilish Davlat bojxona qo‘mitasi raisining tavsiyanomasi asosida amalga oshiriladi hamda o‘rinlar Davlat test markazi tomonidan o‘tkaziladigan test sinovlari natijalari bo‘yicha to‘plangan ballardan kelib chiqib, abituriyent kirish imtihonlarining eng yuqori ballidan kamida o‘ttiz foizini to‘plagan taqdirda, ketma-ketlik tartibida taqsimlanadi.

Mas‘ul vakolatli davlat organi: Davlat bojxona qo‘mitasi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar

Huquqiy asosi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 1-dekabrdagi **PF-5270-son** Farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-iyundagi **417-son** qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta‘lim muassasalariga nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘shimcha davlat granti kvotalari

asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida” nizom.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‘lim muassasalariga test sinovlari orqali qabul qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 14-maydagi **PQ-4319-son** qarori.

Qo‘llanishi: Oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga kirish imtihonlarida to‘plash mumkin bo‘lgan eng yuqori ballning 30 foizidan kam bo‘lmagan ball to‘plagan nogironligi (*I va II guruh*) bo‘lgan

shaxslarga qo‘shimcha **ikki foiz** davlat granti asosida qabul kvotalari ajratiladi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qo‘shimcha kvotalar oliy ta‘lim muassasalari va ta‘lim shakllari kesimida taqsimlanadi va abituriyent o‘zi tanlagan barcha oliy ta‘lim muassasalarida (*abituriyent tanlagan ta‘lim shakli doirasida OTMga nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qo‘shimcha kvota*

ajratilgan bo‘lsa) imtiyoz doirasida tanlovda ishtirok etadi.

Shuningdek, ular test sinovlarida ishtirok etish uchun undiriladigan **to‘lovdan ozod etiladi**.

Mas’ul vakolatli davlat organi: Sog‘liqni saqlash vazirligi (*Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi*).

Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar

Huquqiy asosi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 22-apreldagi **PQ-4296-son** qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‘lim muassasalariga test sinovlari orqali qabul qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 14-maydagi **PQ-4319-son** qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 9-avgustdagi **PQ-5216-son** qarori.

Qo‘llanishi: “Mehribonlik” uyi va Bolalar shaharchasining bitiruvchilari bo‘lgan chin yetimlar, SOS – bolalar mahallalari va oilaviy bolalar uylari

bitiruvchilari, shuningdek, yigirma besh yoshgacha bo‘lgan vasiylikka, homiylikka yoki oilaga tarbiyaga olingan (patronat) yetim bolalarga oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun qo‘shimcha ravishda **bir foizgacha** davlat granti asosida qabul kvotalari ajratiladi.

Qo‘shimcha kvotalar oliy ta‘lim muassasalari va ta‘lim shakllari kesimida taqsimlanadi va abituriyent o‘zi tanlagan barcha oliy ta‘lim muassasalarida (*abituriyent tanlagan ta‘lim shakli doirasida OTMga chin yetimlar uchun qo‘shimcha kvota ajratilgan bo‘lsa*) imtiyoz doirasida tanlovda ishtirok etadi.

Shuningdek, to‘liq davlat ta‘minotidagi shaxslar test sinovlarida ishtirok etish uchun undiriladigan **to‘lovdan ozod etiladi**.

Mas’ul vakolatli davlat organi: Xalq ta‘limi vazirligi, Milliy gvardiya.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar

Huquqiy asosi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 5- martdagi **PQ-5020-son** qarori.

2. Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta‘lim muassasalariga qo‘shimcha davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari doirasida xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish va ularni o‘qishga qabul qilishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2020-yil 23-iyundagi **402-son** qarori.

Qo‘llanishi: Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi tomonidan beriladigan tavsiyanomaga ega bo‘lgan ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlarga oliy ta‘lim

muassasalariga o‘qishga kirish uchun qo‘shimcha **to‘rt foiz** davlat granti asosida qabul kvotalari ajratiladi va ular mazkur kvotalar doirasida tanlovda ishtirok etadi.

Xotin-qizlar uchun qo‘shimcha kvotalar kunduzgi ta‘lim shakli uchun hududlar kesimida taqsimlanadi va kvota doirasida eng yuqori ball to‘plagan abituriyentlar o‘zlari tanlagan birinchi oliy ta‘lim muassasasiga talabalikka tavsiya etiladi. Bunda tavsiyanomaga ega xotin-qizlar qaysi hududdagi davlat oliy ta‘lim muassasasiga topshirishidan qat’iy nazar o‘zining doimiy yashash hududi uchun ajratilgan kvotalar doirasida tanlovda ishtirok etadi.

Mas‘ul vakolatli davlat organi: Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlari

Huquqiy asosi: Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 8- yanvardagi **3-son** qarori.

Qo‘llanishi: Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga pedagogika va moliya-iqtisod sohalaridagi oliy ta‘lim muassasalarida “5520100-Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalarida bo‘yicha)” bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha **sirtqi** ta‘lim shakli uchun qo‘shimcha qabul ko‘rsatkichlari ajratiladi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari uchun ajratiladigan qo‘shimcha qabul ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan oliy ta‘lim muassasalari bakalavriatining sirtqi ta‘lim shakli bo‘yicha davlat buyurtmasi asosida o‘qishga qabul qilish parametrlarida belgilanadi.

Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi tomonidan berilgan tavsiyanomaga ega bo‘lgan hamda kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish

organlari xodimlari belgilangan tartibda talabalikka tavsiya etiladi.

Tavsiyanoma asosida o'qiyotgan talabalar o'qishini boshqa bakalavriyat ta'lim yo'nalishiga ko'chirishga ruxsat berilmaydi.

Ular uchun sirtqi ta'lim shakli doirasida o'qitish **to'lov-kontrakt** asosida tashkil etiladi.

Mas'ul vakolatli davlat organi: Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi.

Harbiy qism qo'mondonligi tavsiyanomasiga ega abituriyentlar

Huquqiy asosi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lgan fuqarolarga imtiyozlar tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2012-yil 31-maydagi **PQ-1765-son** qarori.

2. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-avgustdagi **681-son** qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tab, harbiy qism qo'mondonligining tavsiyanomalariga ega bo'lgan fuqarolarni oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibi to'g'risida" nizom.

Qo'llanishi: O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tab, harbiy qismlar qo'mondonligining tegishli tavsiyanomalariga ega bo'lgan abituriyentlarni

respublikaning oliy ta'lim muassasalari (*oliy harbiy ta'lim muassasalari bundan mustasno*) bakalavriyatiga o'qishga kirishi uchun tegishli o'quv yiliga tasdiqlanadigan qabul parametrlaridan tashqari alohida qabul ko'rsatkichlari ajratiladi.

Alohida qabul ko'rsatkichlari har bir oliy ta'lim muassasasining bakalavriyatiga (*har bir ta'lim shakli (kunduzgi, kechki, sirtqi) bo'yicha*) o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlarining **besh foizi** miqdorida belgilanadi.

Tavsiyanomaga ega abituriyentlar ular uchun belgilangan alohida qabul ko'rsatkichlari doirasida, tanlagan **birinchi oliy ta'lim muassasasi** bo'yicha tanlovda ishtirok etadi.

Mas'ul vakolatli davlat organi: Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi.

O'rmonchilar va ularning farzandlari

Huquqiy asosi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida o'rmon xo'jaligi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiya-

sini tasdiqlash to'g'risida" 2020-yil 6-oktabrdagi **PQ-4850-son** qarori.

Qo'llanishi: 2021-2022-o'quv yilidan boshlab O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi raisining tavsiyanomasiga

asosan o‘rmonchilar va ularning farzandlari uchun oliy ta’lim muassasalarining tegishli ta’lim yo‘nalishlariga davlat granti asosida belgilangan qabul kvotasiga qo‘shimcha **20 foiz** ajratiladi.

Bunda o‘rmonchilar va ularning farzandlari ro‘yxatdan o‘tishda tanlagan ta’lim yo‘nalishlariga o‘rmonchilar va ularning farzandlari uchun qo‘shimcha qabul kvotalari ajratilgan bo‘lsa, dastlab

qo‘shimcha qabul kvotalari doirasida tanlovda ishtirok etadi.

O‘rmonchilar va ularning farzandlari uchun ajratiladigan qo‘shimcha qabul kvotalari har yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori bilan tasdiqlanadi.

Mas’ul vakolatli davlat organi: O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi.

Besh yil mehnat stajiga ega bo‘lgan xotin-qizlar

Huquqiy asosi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 7-martdagi **PF-87-son** Farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-iyundagi **322-son** qarori bilan tasdiqlangan “Mutaxassisligi bo‘yicha kamida besh yil mehnat stajiga ega bo‘lgan xotin-qizlarni davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida” nizom.

Qo‘llanishi: Mutaxassisligi bo‘yicha kamida 5 yil mehnat stajiga ega, lekin oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan 500 nafar xotin-qizlar har yili Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi tavsiyanomalariga asosan davlat oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga umumiy qabul parametrlaridan tashqari alohida test sinovlari natijalariga muvofiq to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilinadi.

Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan kelishgan holda xotin-qizlar mehnat faoliyati kam bo‘lgan sohalarda kamida besh yil mehnat stajiga ega bo‘lgan xotin-qizlar uchun ajratilgan to‘lov-kontrakt asosidagi 500 ta alohida kvotani davlat oliy ta’lim muassasalari bo‘yicha taqsimlaydi va taqsimlagan kvota Davlat komissiyasining qarori bilan tasdiqlanadi.

Kirish imtihonlarida eng yuqori ballning kamida 30 foizini to‘plagan, ammo talabalikka tavsiya etilmagan tavsiyanomaga ega xotin-qizlar ajratilgan alohida kvotalar doirasida, ballar ketma-ketligi bo‘yicha abituriyent ro‘yxatdan o‘tish davrida tanlagan birinchi ta’lim yo‘nalishiga tanlov natijasi asosida talabalikka tavsiya etiladi.

Mas’ul vakolatli davlat organi: Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

Umumta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan va oliy pedagogik ma'lumotga ega bo'lmagan o'qituvchilar

Huquqiy asosi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi **PF-6108-son** Farmoni.

Qo'llanishi: Umumta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan va oliy pedagogik ma'lumotga ega bo'lmagan o'qituvchilar uchun bakalavriatning sirtqi ta'lim shakli bo'yicha alohida maqsadli qabul parametrlari ajratiladi.

Bunda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan va oliy pedagogik ma'lumotga ega bo'lmagan

o'qituvchilarni pedagogik staji asosida sirtqi ta'lim shakli bo'yicha oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga o'qishga qabul qilish tartibi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadi.

Qaror loyihasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilib, Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga joylashtirilgan va muhokamadan o'tkazilgan.

Qaror loyihasi muhokamasi 2022-yil 26-aprel kuni boshlanib, 11-may kuni yakunlangan.

Mas'ul vakolatli davlat organi: Xalq ta'limi vazirligi.

QO'SHIMCHA IMTIYOZLAR

Adliya vazirligi yuridik texnikumlari bitiruvchilari

Huquqiy asosi: Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-noyabrdagi **705-son** qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari bitiruvchilarini "yurisprudensiya" mutaxassisligi bo'yicha yuridik kadrlarni tayyorlashni amalga oshiruvchi oliy ta'lim tashkilotlari bakalavriatiga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida" nizom.

Qo'llanishi: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari bitiruvchilari "yurisprudensiya" mutaxassisligi bo'yicha yuridik kadrlarni tayyorlashni amalga oshiruvchi davlat oliy ta'lim tashkilotlari baka-

lavriatiga test sinovlarisiz yakka tartibda suhbat o'tkazish orqali bakalavrlarni tayyorlashning maxsus uch yillik dasturi bo'yicha o'qishga qabul qilinadi.

Yakka tartibdagi suhbatda ishtirok etish uchun yuridik texnikumlar bitiruvchilari tarkibiga adliya organlari va muassasalari xodimlari kiritilgan Maxsus komissiya tomonidan yo'llanma olishi lozim.

Suhbat jarayonida to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ball 100 ballni tashkil etadi. Yakka tartibdagi suhbatda belgilangan maksimal ballning 70 foizidan yuqori ball to'plagan abituriyent suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

Mas'ul vakolatli davlat organi:
O'zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligi.

Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar

Huquqiy asosi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 6-sentabrdagi **PF-5812-son** Farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-yanvardagi **17-son** qarori bilan tasdiqlangan "Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida" nizom.

Qo'llanishi: 2022-2023-o'quv yili qabulidan boshlab texnikumlarda o'rta maxsus ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar o'z sohasiga mos bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kirish imtihonlarisiz yakka tartibdagi suhbat orqali oliy

ta'lim muassasalarida 2-kursdan o'qishini davom ettirish huquqiga ega bo'ladi.

Texnikumni muvaffaqiyatli tamomlaganlar toifasiga texnikumdagi butun o'qish davrida o'quv semestrlari yakuniga ko'ra o'zlashtirish baholari "5 (a'lo)" va "4 (yaxshi)", biroq o'zlashtirish baholarining kamida 50 foizi (tibbiyot oliy ta'lim muassasalari uchun kamida 85 foizi) "5 (a'lo)" bo'lgan bitiruvchilar kiradi.

Suhbat jarayonida to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ball 100 ballni tashkil etadi. Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarning o'rtachasi 67 ball va undan yuqori bo'lganda abituriyent suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

Mas'ul vakolatli davlat organi: Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

Prezident grantiga da'vogar abituriyentlar

Huquqiy asosi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika oliy ta'lim muassasalariga talabalikka qabul qilingan iqtidorli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 6-iyundagi **PQ-5172-son** qarori.

Qo'llanishi: Davlat oliy ta'lim muassasalari bakalavriatining kunduzgi

ta'lim shakliga kirish imtihonlari natijalariga ko'ra, ta'lim sohalari kesimida, ta'lim olish tilidan qat'i nazar, respublika bo'yicha eng yuqori ball to'plagan abituriyentlarning 200 nafari Prezident grantiga da'vogar bo'ladi. Bunda:

– Prezident granti uchun ajratilgan kvotaning ta'lim sohalari bo'yicha

taqsimoti har yili O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi;

– muayyan ta’lim sohasi uchun ajratilgan Prezident granti kvotasi bo‘yicha so‘nggi o‘rindagi abituriyent va u bilan bir xil ball to‘plagan barcha fuqarolar Prezident grantiga da’vogar bo‘ladi;

– oliy ta’lim muassasasiga o‘qishga kirishda qo‘shimcha ball shaklida imtiyoz beriladigan toifadagi abituriyentlarning kirish imtihonlari natijalariga ko‘ra to‘plagan baliga qo‘shib berilgan ballar

Prezident grantiga da’vogarlarini aniqlashda hisobga olinmaydi;

– Prezident grantiga da’vogar bo‘lgan abituriyentlar ro‘yxati har yili kirish imtihonlari va tanlov to‘liq yakunlangandan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi;

– Prezident grantiga da’vogar bo‘lgan abituriyentlar davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinadi.

Mas’ul vakolatli davlat organi:

Davlat test markazi.

Hokim yordamchilari

Huquqiy asosi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 3- dekabrda **PQ-31-son** qarori.

Qo‘llanishi: 2022-2023-o‘quv yilidan boshlab oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan hokim yordamchilari davlat

oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy ta’lim yo‘nalishlariga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining tavsiyasiga ko‘ra davlat granti asosida sirtqi ta’lim shakliga suhbat asosida o‘qishga qabul qilinadi.

Mas’ul vakolatli davlat organi:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari.

ЛЬГОТЫ ПРИ ПОСТУПЛЕНИИ В ВЫСШИЕ УЧЕБНЫЕ ЗАВЕДЕНИЯ

Справочник

(на 2022-2023 учебный год)

Ж.Т.Одилов

*Государственный центр тестирования при Кабинета Министров
Республики Узбекистана*

В справочнике содержится информация для абитуриентов, поступающих на образовательные направления бакалавриата высших образовательных учреждений, о льготах, предоставляемых им при поступлении на образовательные направления бакалавриата высших образовательных учреждений и их применении.

Абитуриентам могут быть предоставлены льготы при поступлении на направления бакалавриата высших образовательных учреждений на основании соответствующих постановлений правительства.

Государственный центр тестирования является исполнительной организацией и применяет льготы к поступающим на основании действующего законодательства. В случаях, не предусмотренных законодательством, Государственный центр тестирования не уполномочен предоставлять комулибо какиелибо дополнительные льготы.

Приведенные данные актуальны на 2022-2023 учебный год, и применение льгот может измениться в случае внесения изменений в соответствующие постановления правительства или их отмены.

Перевод:

- Э.У.Ураева** – заместитель начальника управления;
Г.М.Мамаджанова – главный специалист;
Д.Т.Мирахмедова – главный специалист.

І. ЛЬГОТЫ, ЯВЛЯЮЩИЕСЯ ОСНОВАНИЕМ ДЛЯ РЕКОМЕНДАЦИИ СТУДЕНТА НА ОСНОВЕ ДОПОЛНИТЕЛЬНОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ГРАНТА БЕЗ ЭКЗАМЕНА

Абитуриенты по рекомендации командования воинской части и Союза Молодежи Узбекистана

Правовая основа:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-3394 «О дополнительных мерах по повышению эффективности государственной молодежной политики в системе Вооруженных сил Республики Узбекистан» от 17 ноября 2017 года.

2. Положение № 393 «О порядке приема студентов в бакалавриат высших образовательных учреждений», утвержденное Постановлением Кабинета Министров от 20 июля 2017 года.

Применение: по рекомендации командования (руководства) воинской части Вооруженных сил Республики Узбекистан и Союза Молодежи Узбекистана по одному молодому военнослужащему из каждой воинс-

кой части, который достиг высоких результатов, принимается на обучение в высшие образовательные учреждения на основе дополнительного государственного гранта.

Абитуриенты, имеющие данную льготу, при зачислении на направления бакалавриата высших образовательных учреждений рекомендуются к поступлению в первое высшее образовательное учреждение по своему выбору.

Ответственный уполномоченный государственный орган: Союз Молодежи Узбекистана, Министерство обороны, Национальная гвардия, Министерство внутренних дел, Служба государственной безопасности, Министерство по чрезвычайным ситуациям.

Дети военнослужащих

Правовая основа:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-3726 «О дополнительных мерах по социальной поддержке военнослужащих Вооруженных сил Республики Узбекистан и членов их семей» от 14 мая 2018 года.

2. Положение «О порядке выдачи рекомендаций военнослужащим Вооруженных сил Республики Узбекистан и детям сотрудников министерств и ведомств, входящих в ее состав, для поступления в высшие образовательные учреждения респуб-

лики на основе квоты», утвержденное Постановлением Кабинета Министров № 462 от 22 июня 2018 года.

Применение: дети военнослужащих и сотрудников Национальной гвардии министерств и ведомств, входящих в состав Вооруженных Сил Республики Узбекистан, погибших при исполнении обязанностей военной службы и ставших инвалидами вследствие ранения, контузии, увечья или заболевания, полученных при исполнении обязанностей военной службы, при поступлении в высшие образовательные учреждения на основании соответствующих рекомендаций министерств или ведомств, принимаются вне конкурса на обучение

на основе государственного гранта вне установленных показателей приема.

Абитуриенты, имеющие данную льготу, при зачислении на направления бакалавриата высших образовательных учреждений рекомендуются к поступлению в первое высшее образовательное учреждение по своему выбору.

Ответственный уполномоченный государственный орган: Министерство обороны, Министерство внутренних дел, Министерство по чрезвычайным ситуациям, служба государственной безопасности, Служба государственной безопасности Президента Республики Узбекистан, Центр развития электронных технологий, Национальная гвардия.

Дети сотрудников органов внутренних дел

Правовая основа:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4212 «О мерах по дальнейшему усилению социальной защиты сотрудников органов внутренних дел и членов их семей» от 26 февраля 2019 года.

2. Положение «О порядке выдачи рекомендаций (представлений) для поступления детей сотрудников органов внутренних дел в государственные высшие образовательные учреждения и высшие и средние специальные образовательные учреждения Министерства обороны, Минис-

терства внутренних дел, Национальной гвардии и Государственного таможенного комитета Республики Узбекистан», утвержденное Постановлением Кабинета Министров № 375 от 6 мая 2019 года.

Применение: детям сотрудников органов внутренних дел, погибшим или ставшим инвалидами вследствие полученных травм в период борьбы с терроризмом и преступностью и обеспечения общественной безопасности, при поступлении в высшие образовательные учреждения предос-

тавляется льгота на поступление на основе государственного гранта без конкурса вне установленных показателей приема (на основании рекомендации).

Рекомендация выдается на срок не более трех лет для однократного поступления на **очную** или **заочную** форму обучения.

Абитуриенты, имеющие данную льготу, при зачислении на направления бакалавриата высших образовательных учреждений рекомендуются к поступлению в первое высшее образовательное учреждение по своему выбору.

Ответственный уполномоченный государственный орган:
Министерство внутренних дел.

Дети сотрудников таможенных органов

Правовая основа:

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 27 апреля 2022 года **№ УП-122** «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию таможенного администрирования» от 27 апреля 2022 года.

2. Положение «О прохождении службы в органах Государственной таможенной службы Республики Узбекистан», утвержденное Постановлением Президента Республики Узбекистан **№ ПП-3665** от 12 апреля 2018 года.

Применение: дети сотрудников таможенных органов, погибшие при исполнении служебных обязанностей, а также ставшие инвалидами вследствие ранения, полученного при исполнении служебных обязанностей, на основании рекомендации председателя Государственного Таможенного Комитета принимаются без конкурса на основе государственного гранта **на очную форму** обучения

бакалавриата государственных высших образовательных учреждений Республики Узбекистан вне установленных показателей приема.

Абитуриенты, имеющие данную льготу, при зачислении на направления бакалавриата высших образовательных учреждений рекомендуются к поступлению в первое высшее образовательное учреждение по своему выбору.

Председатель ГТК также вправе детям сотрудников таможенных органов, погибшим при исполнении служебных обязанностей, получающим образование на платной контрактной основе, за оставшийся период обучения оплатить в полном объеме сумму средств обучения на платной основе, а детям сотрудников таможенных органов, ставшим инвалидами вследствие травмы, полученной при исполнении служебных обязанностей, – пятьдесят процентов от суммы средств обучения на платной

основе за счет внебюджетных средств Государственного Таможенного комитета.

Ответственный уполномоченный государственный орган: Государственный Таможенный Комитет.

Победители республиканских и международных спортивных соревнований

Правовая основа: Положение «О порядке награждения учащихся академических лицеев, профессиональных образовательных учреждений и общеобразовательных школ – победителей международных и республиканских конкурсов, соревнований» утвержденное Постановлением Кабинета Министров № 226 от 13 октября 2008 года.

Применение: выпускники средних общеобразовательных школ, средних специальных профессиональных образовательных учреждений, ставшие победителями и призерами (1-3 места) за последние четыре года на Олимпийских и Паралимпийских, азиатских и Параазиатских играх, чемпионатах мира и Азии по олимпийским и паралимпийским видам спорта, включенным в программы Олимпийских и Паралимпийских игр среди взрослых и молодежи, а также за последний год на чемпионатах республики, принимаются на очную,

заочную, вечернюю формы обучения на основании дополнительного государственного гранта на образовательные направления высших образовательных учреждений в области физической культуры и спорта до начала приема документов для поступления в высшие образовательные учреждения без проведения экзаменационных испытаний.

Победители республиканских (1 место) и международных конкурсов и спортивных соревнований в командных видах спорта определяют трех кандидатов из состава своей команды для поступления в высшее образовательное учреждение из числа выпускников лицеев, профессиональных колледжей и общеобразовательных школ без тестовых испытаний и дополнительных экзаменов.

Ответственный уполномоченный государственный орган: Министерство по развитию спорт.

Победители республиканских и международных турниров по шахматам и шашкам

Правовая основа: положение «О порядке награждения учащихся

академических лицеев, профессиональных образовательных учреж-

дений и общеобразовательных школ-победителей международных и республиканских конкурсов, соревнований», утвержденное Постановлением Кабинета Министров № 226 от 13 октября 2008 года № 226.

Применение: выпускники академических лицеев, профессиональных колледжей и общеобразовательных школ, победившие в республиканских (1-е место) и международных (1-5-е места) турнирах по шахматам и шашкам, принимаются в высшее образовательное учреждение,

осуществляющее подготовку педагогических кадров, без проведения тестовых испытаний и дополнительных экзаменов.

При этом их льготный прием в высшее образовательное учреждение осуществляется при строгом соблюдении отраслевого соответствия специальностей соревнований, видов спорта специальностям образовательного учреждения.

Ответственный уполномоченный государственный орган: Министерство по развитию спорта.

Лауреаты Государственной премии имени Зульфии

Правовая основа:

1. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-2326 «О поддержке предложений по учреждению государственной премии имени Зульфии» от 1999 июня 10 года.

2. Положение «О порядке приема студентов в бакалавриат высших образовательных учреждений», утвержденное Постановлением Кабинета Министров № 393 от 20 июня 2017 года.

3. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-5157 «О параметрах государственного заказа на поступление в высшие образовательные учреждения Республики Узбекистан в 2021-2022 учебном году» от 22 июня 2021 года

Применение: учащиеся общеобразовательных учреждений сред-

него, среднего специального, профессионального образования, являющиеся лауреатами Государственной премии имени Зульфии, принимаются в бакалавриат высших образовательных учреждений, а студенты бакалавриата – в магистратуру на основе дополнительного государственного гранта без экзаменов по соответствующим направлениям и специальностям.

Абитуриенты, имеющие данную льготу, при зачислении на направления бакалавриата высших образовательных учреждений рекомендуются к поступлению в первое высшее образовательное учреждение по своему выбору.

Ответственный уполномоченный государственный орган:

Государственный комитет по делам семьи и женщин.

Лауреаты премии «Нихол»

Правовая основа:

1. Положение «О премии Президента Республики Узбекистан «Нихол» за молодые таланты», утвержденное Постановлением Кабинета Министров № 169 от 9 августа 2006 года.

2. Положение «О порядке приема студентов в бакалавриат высших образовательных учреждений», утвержденное Постановлением Кабинета Министров № 393 от 20 июня 2017 года.

3. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-5157 «О параметрах государственного заказа на поступление в высшие образовательные учреждения Республики Узбекистан в 2021-2022 учебном году» от 22 июня 2021 года.

Применение: лауреаты премии «Нихол» по представлению Минис-

терства культуры решением Государственной комиссии принимаются на обучение вне конкурса на основе дополнительного государственного гранта без проведения вступительных экзаменов на соответствующие образовательные направления высших и средних специальных образовательных учреждений в области культуры, искусства (за исключением лиц, участвующих в качестве ансамблей, коллективов).

Абитуриенты, имеющие данную льготу, при зачислении на направления бакалавриата высших образовательных учреждений рекомендуются к поступлению в первое высшее образовательное учреждение по своему выбору.

Ответственный уполномоченный государственный орган: Министерство культуры.

Победители республиканских конкурсов

Министерства культуры

Правовая основа: Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4038 «Об утверждении Концепции дальнейшего развития национальной культуры в Республике Узбекистан» от 28 ноября 2018 года.

Применение: по одному единственному исполнителю побе-

дители республиканских смотров-конкурсов Министерства культуры «Исполнители народных инструментов», «Исполнители национальных танцев» имени Мукаррамы Тургунбаевой и «Молодые исполнители макома» имени Юнуса Раджаби принимаются на основании дополнительного государственного

гранта к квоте приема в бакалавриат высшего образовательного учреждения по соответствующему направлению.

Эти республиканские смотрь-конкурсы:

–Конкурс «Исполнители народных инструментов» проводится раз в два года, первоначально в июне 2019 года;

–Конкурс «Исполнители национального танца» имени Мукаррамы Тургунбаевой проводится раз в два года, первоначально в октябре 2019 года;

–Конкурс «Молодые исполнители макома» имени Юнуса Раджаби проводится раз в два года, первоначально в апреле 2020 года.

Абитуриенты, имеющие данную льготу, при зачислении на направления бакалавриата высших образовательных учреждений рекомендуются к поступлению в первое высшее образовательное учреждение по своему выбору.

Ответственный уполномоченный государственный орган:
Министерство культуры.

Лауреаты Государственной премии

«Мард углон»

Правовая основа:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-3402 «Об учреждении Государственной премии Республики Узбекистан «Мард углон» от 21 ноября 2017 года.

2. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-5157 «О параметрах государственного заказа на поступление в высшие образовательные учреждения Республики Узбекистан в 2021-2022 учебном году» от 22 июня 2021 года.

Применение: учащиеся общеобразовательных и средних специальных, профессиональных образовательных учреждений, являющиеся обладателями Государственной премии «Мард углон», принимаются на этап бакалавриата выс-

